В заключение, патофизиология гастрита представляет собой комплексный процесс, связанный с воспалением слизистой оболочки желудка. Он может быть вызван различными факторами, включая инфекции, неправильное питание, стресс и длительное употребление некоторых лекарственных препаратов. Основными симптомами гастрита являются неприятные ощущения в желудке, тошнота, рвота, боли или дискомфорт в желудке. Если гастрит не лечится, он может прогрессировать и привести к развитию язвы желудка или даже к раку. Лечение гастрита включает несколько аспектов. Во-первых, очень важно изменить свой образ жизни и питание. Это включает в себя отказ от неправильных пищевых привычек, таких как употребление жирной, острой и кислой пищи, а также увеличение потребления фруктов, овощей и пищи с высоким содержанием клетчатки. Во-вторых, может потребоваться прием лекарственных препаратов, включая противовоспалительные и противобактериальные средства, если гастрит вызван инфекцией *Helicobacter*.

pylori. Также рекомендуется избегать стрессовых ситуаций и принимать меры по их управлению, такие как медитация, йога или релаксационные техники. Однако каждый случай гастрита уникален, поэтому решение о лечении должно быть принято после консультации с врачом, который проведет необходимые исследования и определит точную причину и степень развития заболевания. Главной целью лечения гастрита является снятие воспаления, улучшение пищеварения и предотвращение возможных осложнений. Своевременное обращение к врачу, соблюдение рекомендаций по питанию и принятие необходимых лекарственных препаратов помогут вам избежать осложнений и достичь полного выздоровления.

Список литературы:

1. П.Ф.Литвицкий Патофизиология 5-издание
2. Н.Н.Зайко , Ю.В.Быцы , Н.В.крышталя Патофизиология
3. А.В.Атаман Патофизиология в вопросах и ответах
4. В.Х.Василенко , А.Л.Гребенева Пропедевтика внутренних болезней
5. В.С.Паукова Патологическая анатомия

GIPERTONIYA KASALLIGI FONIDAGI SURUNKALI MIYA ISHEMIYASIDA NEVROLOGIK VA NEYROEMOTSIONAL SINDROMLAR

Aliyev Doniyor Soibjon o‘g‘li
Andijon davlat tibbiyot instituti

Nevrologiya kafedrasи magistratura 3-bosqich talabasi
aliyevdoniyor1@gmail.com

Ilmiy Raxbar: **O.G. Bo‘stonov, Z.SH.Boydadayev**

ANNOTATSIYA

Mavzuning dolzarbligi: Miya qon tomir kasalliklarining oldini olish, erta tashxis qo‘yish va davolash eng dolzarb muammolardan biri bo‘lib, zamonaviy nevrologiyaning eng ustuvor yo‘nalishi hisoblanadi. Qo‘shma Shtatlarda insult o‘lim sabablari tarkibida uchinchi va uzoq muddatli nogironlik sabablari orasida birinchi o‘rinda turadi. Hisob-kitoblarga ko‘ra insultni davolash uchun yiliga 2.32 milliard dollar sarflanadi. Miya qon tomir kasalliklari barcha yosh guruhlarida ayollarga qaraganda erkaklarda yuqori va hayotning har bir keying o‘n yilligida kasallanish soni taxminan 1.5 baravar ortadi. Miyaning qon tomir kasalliklari orasida gipertenziv ensefalopatiya ko‘rinishidagi progressiv serebrovaskulyar patologiya alohida ahamiyatga o‘rin tutadi. Ushbu patologiya bilan morfologik o‘zgarishlar miyadagi moddalarning diffuz va kichik fokal o‘zgarishlar (lakunar infarktlar) shaklida shakllanadi, magnit-rezonans va kompyuter tomografiysi bilan aniqlanadi.

Tadqiqot maqsadi: Gipertonik ensefalopatiyaga chalingan bemorlarda neyroemotsional xolatini o‘rganish va kasallik bosqichlariga ko‘ra to‘g‘ri davolash rejasini tuzish masalalarini o‘rganish.

Tadqiqot metodlari: 1. Barcha bemorlarni nevrologik ko‘rikdan o‘tkazish. 2. Neyropsixologik testlar o‘tkazish A) Xavotirli holatlarni baholash uchun Spilberher-xanin shkalasi (Spielberher Hanin anxiety scale) B) Beka ning depressiyani aniqlash shkalasi.

Natijalar: Surunkali bosh miya ishemiyasida miyadagi kasallikga xos morfologik o‘zgarishlar bilan oliy nerv faoliyatining etishmovchiligi va neyroemotsional o‘zgarishlarning o‘rtasidagi bog‘liqlik o‘rnatildi.

Birinchi marta gipertoniya kasalligi fonidagi bosh miya surunkali ishemiyasi bor bemorlarda mavjud neyropsixologik holatlarni davolashda kompleks davo tarkibiga nitop va medalopram preparatlarini kasallik bosqichlariga mos ravishda qo‘llash orqali effektiv natijalar erishish masalalari yoritildi.

Kalit so‘zlar: Gipertonik ensefalopatiya, tranzitor ishemik ataka, qon tomir demensiyasi, depressiya.

ANNATATION

Relevance of the topic: Prevention, early diagnosis and treatment of cerebrovascular diseases are one of the most urgent problems and are considered the most priority direction of modern neurology. In the United States, stroke is the third cause of death and the first cause of long-term disability. It is estimated that \$2.32 billion is spent annually on stroke care. Cerebrovascular diseases are more common in men than in women in all age groups, and the number of cases increases approximately 1.5 times with each decade of life. Among vascular diseases of the brain, progressive cerebrovascular pathology in the form of hypertensive encephalopathy is of particular importance. With this pathology, morphological changes are formed in the form of diffuse and small focal changes (lacunar infarcts) of brain matter, detected by magnetic resonance and computer tomography.

The purpose of the research: to study the neuroemotional condition of patients with hypertensive encephalopathy and to study the issues of drawing up the correct treatment plan according to the stages of the disease.

Research methods: 1. Neurological examination of all patients.

2. Conducting neuropsychological tests:

A) Spielberger Hanin anxiety scale for assessing anxiety

B) Beka's Depression Rating Scale.

Results: In chronic cerebral ischemia, a correlation between morphological studies of the brain and the deficiency of higher nerve activity and neuroemotional changes was established.

For the first time, the issues of achieving effective results by using Nitop and Medalopram drugs as part of the complex treatment in the treatment of existing neuropsychological conditions in patients with chronic ischemia of the brain against the background of hypertension were highlighted.

KIRISH.

Miya qon tomir kasalliklarining oldini olish, erta tashxis qo'yish va davolash tibbiyotning eng dolzarb muammolardan biri bo'lib, zamonaviy nevrologiyaning eng ustuvor yo'nalishini tashkil etadi. G'arb mamlakatlarida va Yaponiyada o'lim darajasi doimiy ravishda pasayib, o'rtacha umr ko'rish va aholining yashash sifat darajasi yildan-yilga oshib borayotgan bo'lsa, mamlakatimizda insult, miokard infarkti va boshqa qon tomir kasalliklaridan aholining erta nogironligi va shu kasalliklardan o'lim xolatlari tobora ortib borayotgan tendentsiya saqlanib qolmoqda.

So'nggi yillarda mamlakatimizda bosh miya va yurak qon-tomir kasalliklaridan o'lim hollari halokatli darajada oshdi. Respublikamizda insult o'lim sabablari orasida ikkinchi (o'tkir yurak kasalliklaridan keyin) va og'ir qoldiq nogironlik darajasi bo'yicha birinchi o'rinda turadi (10 000 aholiga 3,2). Rossiyaning yirik sanoat shaharlarida insultning yillik ko'rsatkichi 1000 aholiga 3-4 tani tashkil qiladi (Gusev E., 2016).

Miyaning qon tomir kasalliklari orasida gipertonik ensefalopatiya ko‘rinishidagi progressiv surunkali serebrovaskulyar patologiya alohida o‘rin tutadi. Ushbu patologiya bilan morfologik o‘zgarishlar miyadagi moddalarning diffuz va kichik fokal o‘zgarishlar (lakunar infarktlar) shaklida shakllanadi, magnit-rezonans va kompyuter tomografiyasi bilan aniqlanadi. Gipertenziv ensefalopatiyaning dastlabki bosqichlarida allaqachon kognitiv buzilishlar rivojlanadi, hissiy soha va vehetativ funksiyalar buziladi, bu hayot sifatining yomonlashishiga va mehnat qobiliyatining pasayishiga olib keladi. Hozirgi vaqtida arterial gipertenziyaning turli shakllarida kunlik qon bosimining o‘zgaruvchanligini o‘rganishga katta ahamiyat berilmoqda. Qon bosimi monitoringi ma’lumotlarining prognostik qiymati yurak-qon tomir asoratlari rivojlanish ehtimolini bashorat qilish mumkin. Arterial tizimda qon aylanishining buzilishi bo‘lsa bosh miya venoz tizimining birlamchi darajali patologik jarayonlar rivojlanadi. Shubhasiz, oliy psixik funksiyalar, qon bosimining kunlik o‘zgaruvchanligi, avtonom asab tizimi va miyaning venoz tizimining holatini har tomonlama o‘rganish GE shakllanishi va rivojlanishining ba’zi yangi mexanizmlarini ochib beradi va undan keyingi bosqichlarda kasallikning prognozi va davolash samaradorligini kuzatish uchun adekvat mezonga aylanadi.

Adabiyotlar taxlili va metodologiya.

Serebrovaskulyar kasalliklarning rivojlanishi uchun xavf omillari.

Arterial gipertenziya asosiy xavf omili sifatida gipertenziyaning o‘limga olib keladigan asoratlari orasida etakchi rol miokard infarkti va bosh miya qon tomirlariga tegishli [4,21]. Surunkali bosh miya ishemiyasi koproq yoshi kotta bemorlardan keng tarqalgan bo‘lib boshqa nevrologik kasalliklarga qaraganda ko‘proq uchraydi va bu kasallikdagi nevrologik va neyropsixologik sindromlarni o‘z vaqtida aniqlash va davolash choralar ko‘rilmasligi bemorlarni nogironlikka olib keladi. So‘nggi yillarda surunkali bosh miya ishemiyasining rivojlanishi uchun xavf omillariga arterial gipertenziya, yurak xastaligi, qandli diabet, giperkolesterolemija, chekish, qarilik, oilaviy tarixda yurak-qon tomir kasalliklarining erta rivojlanishi ko‘rsatkichlari sabab bo‘lishi haqida tushuncha paydo bo‘ldi. Bundan tashqari asimptomatik karotid arteriyalar stenozi(CA), semizlik, gipodinamik turmush tarzi, spirtli ichimliklarni suiiste’mol qilish, buyrak kasalligi, psixologik va ijtimoiy omillar sabab bo‘ladi [2, 11].

Nevrologik kasalliklarning paydo bo‘lishiga va serebrovaskulyar patologiyada nuqsonlarning dekompensatsiyasiga sabab bo‘lgan miyadagi gipoksik o‘zgarishlar asosan markaziy va miya gemodinamikasining zaxira imkoniyatlari bilan belgilanadi [12 ,14]

Gipertenziyadagi qon tomirlarining o‘zgarishi natijasida yuzaga keladigan turli tabiatdagi miya shikastlanishlari "gipertenziv anjioensefalopatiya" deb ataladi.

Bosh miyagi uchta yirik miya arteriyalarining qon bilan ta'minlashi ularning tegishli havzasi bilan chegaralanib qolmaydi, chunki arteriyalarning shoxlari bir-biri bilan keng anastomozlanadi. Ko'p sonli anastomozlarning mavjudligi alohida arteriyalar qon aylanishi buzilgan taqdirda tez qayta oqim taminlash uchun optimal sharoitlarni yaratadi [1, 20].

Old va o'rta, old va orqa, o'rta va orqa miya arteriyalarining tutashgan joyida bu anastomozlar ayniqsa katta va doimiydir. Bu yerda, miya yarim sharlarining konveksital yuzasida ular qo'shni qon ta'minoti zonalari deb ataladigan zonalarni hosil qiladi [16]. Qon bosimining uzoq muddatli oshishi bilan intraserebral va ekstrakranial arteriyalarda qon oqimi (karotid va vertebral) o'zgaradi, ularning elastikligibuziladi, ichki elastik membrana parchalanadi va mushak qavati buziladi, silliq mushak tolalari nobud bo'ladi [17]. Yirik qon tomirlardagi o'zgarishlar faqatgina doimiy arterial gipertenziya davrida emas, balki qon bosimining keskin oshishi davrida kuzatiladi [12]. Qon bosimining keskin ko'tarilishi, ayniqsa, plazmorragiya va arteriyalarning mushak qoplaming tolali nekrozi bilan birga, kamida ikkita patologik natijaga olib kelishi mumkin: miyada qon aylanish buzilishining keyingi rivojlanishi bilan miliar anevrizmalarning shakllanishi, shuningdek. lakunar miya infarkti rivojlanishi bilan arteriolaning devor shishishi, torayishi yoki yopilishiga olib keladi [19]. Arterial tizimda qon bosimining oshishi bilan tomir devorining shishishi, gialinoz va skleroz paydo bo'ladi; venoz tizimda angiogenez faollashadi.

Miyaning qon tomir patologiyasini erta tashxislash davolash va profilaktika choralarini samarali amalga oshirish uchun juda muhimdir. Gipertenziya va ateroskleroz simptom kompleksining ajralmas qismi ularning nevrologik va psixopatologik asoratlari bo'lib, ular asosan miya qon ta'minotining surunkali etishmovchiligining natijasini aniqlaydi [5]. Klinikada tasnifiga ko'ra bosh miya qon aylanishi yetishmovchiligi dastlabki belgilari (BMQAYDB) va uch bosqichli diskirkulyator ensefalopatiya (DE) ga ajratadi. Miyaning qon tomir patologiyasining yangi klinik shakli - MQAYDB ni aniqlash katta amaliy ahamiyatga ega edi. Ushbu tashxis uzoq vaqt davomida yashirin bo'lishi mumkin bo'lgan kasallikning boshlanishini emas, balki miyaga qon ta'minoti etishmovchiligining faqat dastlabki klinik ko'rinishini ko'rsatadi. Shu bilan birga, klinik ko'rinishlar miya qon aylanishining avtoregulyatsiya mexanizmlarining buzilishiga asoslangan [8]. Gipertenziya klinikasiga bag'ishlangan ko'plab monografiyalarda ta'kidlanishicha, bosh og'rig'i ushbu kasallik tufayli miyaga qon ta'minoti etarli bo'lмаган bemorlarda eng ko'p uchraydigan shikoyatlardan biridir. gipertoniya bilan og'igan BMQAYDB bilan og'igan bemorlarda bosh og'rig'i kuzatilgan, bu ko'pincha oksipital yoki frontotemporal sohada qon aylanishi yomonlashuvidan[84] boshning orqa, bo'yin qismida, ba'zan ertalab boshida og'irlik, jismoniy faoliyatdan keyin yo'qoladi [17,3].


- oksipitotemporal mintaqada psixo-emotsional omillar yoki keskin meteorologik tebranishlar ta'sirida paydo bo'ladigan yoki kuchayadigan siqilish, siqish xarakterdagi doimiy engil bosh og'rig'i. Ba'zi bemorlarda bosh og'rig'i ertalab sodir bo'lgan, oksipital mintaqada lokalize qilingan, yotoqdan ko'tarilish bilan kamaydi va kunning o'rtalarida yo'qoldi [18]. Bosh og'rig'i patogenezida qon tomirlari devoridagi venoz turg'unlik tufayli miya tomirlarining vazo vazorumining tasirlash xususiyati ma'lum rol o'ynaydi, deb hisoblaydi. Bosh suyagi bo'shlig'idan venoz chiqishini to'sib qo'yish tufayli bosh og'rig'i oksipital mintaqada og'irlik hissi bilan namoyon bo'ladi (intrakranial venoz sinuslarning qo'shilish proektsiyasi) [8, 19]. Ba'zida og'riq "ichkaridan ko'zlarga bosib" fronto-orbital mintaqaga tarqaladi. Oshgani sayin, portlash og'rig'i diffuz bo'ladi. Bunday og'riqning paydo bo'lishiga venoz tonusi past bo'lgan kranial bo'shliqdan venoz chiqishiga to'sqinlik qiluvchi barcha omillar yordam beradi: tananing gorizontal holati yoki boshning pastga yoki egilgan holati, jismoniy stress, yo'tal, zo'riqish, qattiq yoqalar kiyish ("qattiq yoqa" simptom). Alkogolning kichik dozalarini ham qabul qilganda og'riq kuchayadi [20]. Odatda, bunday og'riqlar kechasi yoki ertalab paydo bo'ladi yoki kuchayadi ("uyqudan keyin ko'zlarimni ochganidan keyin"), u o'rnidan turgandan va faollashgandan keyin astasekin yo'qoladi, chunki simpatik tizimning faolligi ohangni oshiradi. venalarning va vertikal holat kranial bo'shliqdan venoz chiqishini osonlashtiradi [13]. Kuchli choy yoki qahva ichgandan keyin, boshni baland shaklda yotgan holda dam olgandan keyin yo'qoladi("baland yostiq" simptom) [5]

Surunakli bosh miya ishemiyasida kuzatilishi mumkin bo'lgan kognitiv disfunktsiya rivojlanishi kasallikning malum bosqichlarda aniqlashning ahamiyati aynan shu bosqichlarda qo'llanilgan tegishli terapevtik choralar samarali bo'lishi bilan bog'liq. Neyropsixologik tadqiqotlar bu borada istiqbolli hisoblanadi, chunki bu usul miyaning turli sohalarida gipoksiyani aniqlash uchun juda sezgir hisoblanadi [4,9]. Miyaning qon tomir kasalliklari klinikasida neyropsixologik yondashuvni sinovdan o'tkazish neyropsixologik testlarning nafaqat qon tomir patologiyasining o'ziga nisbatan, balki har qanday tomirda qon oqimining o'zgarishi kabi hemodinamik ko'rinishlarga nisbatan yuqori sezgirligini ko'rsatdi [13]. Eksperimental va psixologik jihatdan o'tkazilgan tadqiqotlar HE rivojlanishi bilan aqliy faoliyatning ko'plab ko'rsatkichlarining yomonlashadi va kasallikning turli bosqichlarida bu buzilishlarning tabiatini va darajasini o'zgaradi [12]. BMQAYDB bilan og'riqan bemorlar ko'pincha xotira yo'qotishlaridan shikoyat qiladilar. Ko'pincha ismlar, raqamlar va yaqinda yuzaga kelgan voqealar pasayadi. Yodlashtirish qobiliyati kamayadi, o'qilgan narsalarni xotirada saqlash qiyinlashadi, amalga oshirish rejalashtirilgan narsa unutiladi.

Natijalar va muxokamalar.


Tekshiriluvchilarining klinik va paraklinik tekshiruv natijalari. Klinik tekshiruvlarga asoslanib surunkali bosh miya ishemiyasi bilan xastalangan 30 ta bemorning 8 tasi kasallikning I darajasiga, 13 tasi II darajasi, 9 ta bemor esa III darajasi ekanligi aniqlandi.

1-rasm. Bemorlarni kasallikning bosqichlariga ko‘ra taqsimoti.



Tekshiriluvchi bemorlarni yashash joylari bo‘yicha o‘rganilganda ularning ko‘pchilik qismi shahar hududlarida istiqomat qilishini aniqladik.

2-rasm. Gipertoniya kasalligi bosqichlari bo‘yicha taqsimot.



Biz tekshiruv olib borayotgan SBMI mavjud bemorlarda kasallikning asosiy etakchi etiologik omili arterial gipertensiya hisoblanadi. Ulardan 5 nafari (16.67%) gipertoniya

kasalligining I bosqichi bilan, 9 (30 %) nafari II bosqich 16 (53.33%) nafari esa III bosqichi bilan xastalanganligi aniqlandi (JSST / MTF tasnifiga ko‘ra, 2015 yil).

Surunkali bosh miya ishemiyasining I-bosqichi aniqlangan bemorlarning nevrologik tekshiruvi tarqoq mikrosimptomlarni aniqlandi: sust ko‘z qorachiq reaktsiyalari, engil qarash parezi, konverhentsiya etishmovchiligi. Eng ko‘p uchraydigan alomat beshinchi juft kranial nervlarning chiqish nuqtalarida og‘riq edi. Bu alomat erkaklarnikiga qaraganda ayollarda tez-tez kuzatilgan ($p < 0,02$). Bemorlarning 12 foizida triheminal asabning birinchi shoxini innervatsiya qilish zonasida gipoesteziya aniqlangan.

1-jadval SBMI bo‘lgan bemorlar nevrologik simptomlarning namoyon bo‘lish chastotasi.


Simptomlar	SBMI darajalari											
	I				II				III			
	IV	Erkak	Ayol		IV	Erkak	Ayol		IV	Erkak	Ayol	
	n	%	n	%	n	%	n	%	n	%	n	%
Nistagm	2	10,0	5	16,6	7	18,9	21	28,0	3	20,0	11	28,9
Oral avtomatizm reflekslari	6	30,0	5	16,6	22	59,4	32	42,6	9	66,6	22	57,8
Chuqur reflekslarning oshishi	5	25,0	7	23,3	17	45,9	43	57,3	8	53,3	20	52,6
Oyoq Patologik reflekslar	3	15,0	2	6,6	13	35,0	19	25,3	7	46,6	14	36,8
Karpal patologik reflekslar			2	6,6	4	10,8	17	22,6	7	46,6	12	31,5
Mushaklar gipertoniysi	2	10,0	2	6,6	22	59,4	43	57,9	5	33,3	23	60,5
Piramid gipertoniysi	-	-	-	-	2	5,4	6	8,0	6	40,0	10	26,3
Psevdobulbar simptomlar			2	6,6	2	5,4	5	6,6	5	33,3	7	18,4
Koordinatsiya buzilishlari.	3	15,0	7	23,3	8	21,6	12	16,0	4	26,6	14	36,8
Jami	3		4		6		9		3		5	
Barchasi	7				15				8			

GE I bosqichi bilan og‘rigan bemorlarning aksariyati (46%) VSD sindromiga ega bo‘lib, keyingi bosqichlarda uning chastotasi 4,5-7,5% gacha sezilarli darajada kamaydi ($p < 0,01$), III GE bosqichida bu sindrom faqat ayollarda tashxis qo‘yilgan. SBMI I bosqichining klinik ko‘rinishida muhim o‘rinni nevrozga o‘xhash sindrom egallagan (38%) va ayollarda tez-tez aniqlangan ($p < 0,01$). Jarayon davom etar ekan, bu sindrom bemorlarning sezilarli darajada kamroq sonida (8,9-3,8%; $p < 0,01$), II bosqichda erkaklarda ayollarga qaraganda tez-tez aniqlandi ($p < 0,01$).

Spilberger-xanin shkalasi bo‘yicha tadqiqot natijalari.

Gipertoniya kasalligi fonidagi surunkali bosh miya ishemiya bilan kasallangan bemorlarimizda Spilberger-xanin shkalasi yordamida xavotir darajalarini baholadik. Bunga ko‘ra SBMI bilan xastalangan 3 guruh bemorlarimizda 56.67% qismida turli darajadagi xavotirli holatlarni aniqladik. Turli darajadagi xavotirli holatlar aniqlangan bemorlarimizning 23.52% qismida (umumi xisobda 13.33%) kuchli darajadagi reaktiv xavotirli xolarlar aniqlandi va ularning asosiysi qismi ikkichi va uchinchi guruh bemorlarimiz orasida qayd qilindi. Xavotirli holarlar mavjud bemorlarimizning 41.17% qismini o‘rta darajadagi xavotirli holatlar tashkil qildi va ularning asosiy qismi ikkinchi guruh bemorlarimiz xissasiga to‘gri keldi. Birinchi guruh bemorlarimizda faqatgina engil darajadagi xavotirli holatlar qayd qilindi va ular umumi hisobda jami bemorlarning 3.33% qismini tashkil qildi.

3-rasm. Spilberger-xanin shkalasidan olingan natijalar.




2-jadval

Tekshiriluvchi guruhlar.						
Spilberger-xanin shkalasi	I-guruh		II-guruh		III-guruh	
	N	%	N	%	n	%
Yengil xavotirli xolat	1	3.33	5	16.67	x	0
O'rta darajadagi xavotirli holat	X	0	7	23.33	x	0
Kuchli darajadagi xavotirli holat	X	0	2	6.67	2	6.67
Jami	1	3.33	14	46.67	2	6.67

3.2.3. Beka shkalasi bo'yicha tadqiqot natijalari.

Gipertoniya kasalligi fonidagi surunkali bosh miya ishemiya bilan kasallangan bemorlarimizda Beka shkalasi yordamida xavotir darajalarini baholadik. Bunga ko'ra SBMI bilan xastalangan 3 guruh bemorlarimizda turli darajadagi tushkinlik holatlarni aniqladik. So'rovnima natijalariga ko'ra tekshiriluvchi guruh bemorlarimizning 36.67 % qismida tushkinlik holati aniqlandi. Ularning asosiy qismi ikkinchi guruh tekshiriluvchi bemorlarimiz xissasiga to'g'ri keldi (30%). O'g'ir darajadagi depressiv holatlar ham aynan 2 guruh tekshiriluvchi bemorlarimizning orasida qayd etildi (6.67 %).

4-rasm. Beka shkalasidan olingan natijalar (Davolashdan oldin)




3-jadval

Tekshiriluvchi guruhlar.						
Beka shkalasi	I-guruh		II-guruh		III-guruh	
	N	%	N	%	N	%
Yengil depressive	2	6.67	3	10	X	0
O'rta depressive	X	0	5	13.3	1	3.33
Og'ir depressive	X	0	2	6.67	X	0
Jami	2	6.67	10	33.33	1	3.33

SBMI bilan kasallangan 3 guruh bemorlarimiz orasidan Beka shkalasi orqali turli darajadagi depressiv holatlar mavjud alohida guruhlarida medolopram dorisini qo'llash orqali boshqa dorilarga qarganda bir muncha yaxshi natijalarni oldik. Bunda biz medolopram preparatini alohida guruhlarda tushkinlik holatini darajalariga qarab ikki xil miqdorda (medolopram 10 mg, medolopram 20 mg) turli xil muddatlarda qo'llab kuzatishlar olib bordik va preparatni doimiy ravishda bir muncha uzoqroq qo'llash orqali bemorlardagi depressiv holatlarni bosqichma –bosqich yaxshilanishini aniqladik.

SBMI mavjud o'rta va o'g'ir darajadagi depressiv holat qayd qilingan ikkinchi va uchinchi guruh bemorlarimizda 20 mg medolopram preparatini uch oylik doimiy qo'llashda keyingi natijalar.


5-rasm Medolopram bilan davolashdan keyingi natijalar



4-jadval Medolopram bilan davolashdan keyingi natijalar.

Davolashdan olingan natijalar.								
Medolopram 20 mg	Dastlab		1 oy		2 oy		3 oy	
	N	%	N	%	N	%	N	%
O'rtal depressive holat	7	77.78	5	55.56	4	44.44	1	11.11
O'g'ir depressive holat	2	22.22	2	22.22	1	11.11	0	0
Jami kasallanish .	9	100	7	77.78	4	44.44	1	11.11

SBMI mayjud engil darajadagi depressiv holat aniqlangan bemorlarni 10 mg medolopram preparati bilan davolashdan so'ng.

6-rasm Medolopram bilan davolashdan keyingi natijalar**5-jadval** Medolopram bilan davolashdan keyingi natijalar

Davolashdan olingan natijalar.						
Medolopram 10 mg	Dastlab		1 oy		2 oy	
	N	%	N	%	N	%
Depressiv holat mavjud emas.	14	73.68	17	89.42	19	100
Yengil depressiv holat.	5	26.32	2	10.53	0	0

Yuqorida keltirilgan jadval va diagrammalarda ko‘rinib turganidek tadqiqotimiz davomida SBMI bilan xastalangan Beka shkalasida o‘rtalari va o‘g‘ir darajadagi tushkinlik xolatlari qayd qilingan bemorlarimizda medolopram 20 mg dorisini kompleks davo tarkibida 3 oy muddat (1 maxal)doimiy qo‘llash orqali umumiy depressiv holatlarni 11.11 % gacha va yengil darajadagi tushkinlik holatlari aniqlangan bemorlarda medolopram 10 mg preparatini kompleks davo tarkibida 2 oy muddat (1 maxal) doimiy qo‘llash orqali depressiv holatlarni kamayishiga va bemorlarni hayot sifatini yaxshilanishiga erishdik.

XULOSA

1. GE bosqichini aniqlashda murakkab nevrologik va neyropsixologik diagnostikadan foydalanish kerak. GE fonidagi bosh miya ishemiyasi dastlabki bosqichida vegetativ-qon tomir distoniya sindromi (46%), nevrozga o'xshash sindrom (38%), diffuz nevrologik mikro-simptomlar (44%) mavjud. GE II Amniostatik (44,6%), piramidal (36,6%), psevdobulbar (22,3%) va vestibuloserebellar (31,2%) sindromlarining rivojlanishi bilan tavsiflanadi. III bosqich GE bilan bir nechta nevrologik sindromlarning kombinatsiyasi kuzatiladi va qon tomir demensiyasi rivojlanadi.
2. Tekshiriluvchi guruh bemorlarimizda o'tkazilgan spilberger-xanin shkalasi xulosalariga ko'ra bemorlarning 56.67 % qismida xavotirli holatlar, shkala depressiya Beka so'rovnomalarida bemorlarning 36.67 % qismida tushkinlik holatlar aniqlandi (6.67% qismi engil darajadagi tushkinlik, 23.33% o'rta darajadagi depressiv holat, 6.67% o'g'ir depressiv holat) va ularning ko'p qismini tekshiriluvchi I va II guruh bemorlar tashkil etdi.
3. Tadqiqotimiz davomida GK fonidagi SBMI bilan xastalangan bemorlarimizda kuzatiladigan turli darajadagi neyropsixologik sindromlarda kompleks davo tarkibida medolopram preparatini kasallikni bosqichlariga mos ravishda yetarli miqdor va muddatda qo'llab bemorlardagi xissiy, ixtiyoriy va kognitiv buzilishlarning regressiyasiga sezilarli ijobiylashtirish etdik.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

- 1 Abramova N.H., Belichenko O.I.. Clinical aspect of the combined use of magnetic resonance imaging of the brain and magnetic resonance angiography of extra- and intracranial arteries in patients with arterial hypertension 2015. - N 9. - P. 26-31.
- 2 Agapova E.H., Tkachenko A.M., Chulkov E.P., Eliseeva J.I.H., Novikova R.N. State of microcirculation and venous tone in patients with hypertension // Venous pathology of the brain and spinal cord: Abstracts of reports. All-Russian scientific and practical conference - Krasnodar, 2012.-P. 27-28.
- 3 Akimov G.A. Initial manifestations of vascular diseases of the brain. - L.: Medicine, 2014. - 223 p.
- 4 Gannushkina I.V. Pathomorphological mechanisms of cerebral circulation disorders and new directions in their prevention and treatment // Journal. neuropathol. and psychiatrist.- 2015. 14-18 p.
- 5 Gorbacheva F.E., Skoromets A.A., Yakhno N.H. Vascular diseases of the brain and spinal cord. // In the book: Diseases of the nervous system. T. 1, - M.: Medicine, 2015.-P. 152-255.

- 6 Gannushkina I.V. Pathomorphological mechanisms of cerebral circulation disorders and new directions in their prevention and treatment // Journal. neuropathol. and psychiatrist.- 2015.- No. 1.- pp. 14-18.
- 7 Gorbacheva F.E., Skoromets A.A., Yakhno N.H. Vascular diseases of the brain and spinal cord. // In the book: Diseases of the nervous system. T. 1, - M.: Medicine, 2015.-P. 152-255.
- 8 Gulevskaya T.S., Morgunov V.A. Multi-infarction state of the brain in atherosclerosis and arterial hypertension // Materials of the VIII All-Russian Congress of Neurologists. - 2011.- P. 224-225.
- 9 Gusev E.I., Kuzin V.M. Disorders of venous circulation in cerebrovascular diseases // Venous pathology of the brain and spinal cord: Materials of the All-Russian scientific and practical conference - Krasnodar, 2013. - P. 37-38.
- 10 Damulin I.V., Yakhno N.N. Cerebrovascular insufficiency in elderly and senile patients.
- 11 Stroke. Principles of diagnosis, treatment and prevention / Ed. N.V. Vereshchagina, M.A. Piradova, Z.A. Suslina. - M.: Intermedica, 2012.- 208 p.
- 12 Yakhno N.H., Damulin I.V. Dyscirculatory encephalopathy and vascular dementia in the elderly // Breast Cancer. - 2013. - T.5. - N 20.
Hachinski V.C., Hiff L.D., Zikha E. et al. Cerebral blood flow in dementia // Arch. Neurol /Chic/. - 2022. - Vol.32. - P. 632-637.
- 13 Hademenos G.J. The Biophysics of Stroke // American Scientist. - 2021. - Vol.85. - P. 226-235.
- 14 Kario K., Matsuo T., Kobayashi H. et al. Nocturnal fall of blood pressure and silent cerebrovascular damage in elderly patients: advanced silent cerebrovascular damage in extreme dippers // Hypertension. Vol-75

KELISHIK KATEGORIYASINING MORFOLOGIK-SINTAKTIK XUSUSIYATLARI (ARAB VA O'ZBEK TILLARI MISOLIDA)

Sadriddinova Fozila

O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi

magistranti

yodgorfozila@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqola grammatik kategoriyalardan biri – kelishik kategoriyasining morfologik-sintaktik xususiyatlari haqida. Mavzu arab va o'zbek tillari misolida yoritiladi.

Kalit so'zlar: Grammatika, morfologiya, sintaksis, so'z turkumi, ot, ism, grammatick kategoriya, kelishik, qo'shimcha, tovush o'zgarishi.

THE MORPHOLOGICAL-SYNTACTIC FEATURES OF THE CATEGORY OF CASE (USING THE EXAMPLE OF ARABIC AND UZBEK LANGUAGES)

Sadriddinova Fozila

Student of International Islamic academy of
Uzbekistan

yodgorfozila@gmail.com

ABSTRACT

This article aims to focus on the morphological-syntactic sides of the category of cases. The topic is explained using the examples of Arabic and Uzbek languages.

Key words: Grammar, morphology, syntax, part of speech, noun, name, grammatical category, case, affix, sound change.

МОРФОЛОГО-СИНТАКСИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ КАТЕГОРИИ ПАДЕЖА (НА ПРИМЕРЕ АРАБСКОГО И УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКОВ)

Садридинова Фозила

Магистрант Международного исламского академии Узбекистана

yodgorfozila@gmail.com

АННОТАЦИЯ

Эта статья является о морфолого-синтаксические особенности одно из грамматических категориях – категории падежа. Тема объяснена на примере арабского и узбекского языков.

Ключевые слова: Грамматика, морфология, синтаксис, часть речи, имя существительное, имя, грамматическая категория, падеж, аффикс, изменение звук.

KIRISH. Grammatika tilshunoslikda so‘z shakllarining o‘zgarishi va so‘zlarning yasalishi haqidagi qoidalar hamda gapda so‘z va so‘z birikmalarining bog‘lanish xususiyatlarini o‘rganuvchi bo‘limdir. Grammatika morfologiya va sintaksis qismlaridan iborat. Morfologiya qismida so‘zlar, ularning yasalish xususiyatlari, so‘z shakllarining hosil qilinishi va bu orqali grammatic ma’nolarning o‘zgarishi o‘rganiladi. Sintaksis esa so‘z birikmalari va gaplarning tuzilishi, ularda so‘zlarning o‘zaro bog‘lanish xususiyatlarini o‘rganuvchi qism hisoblanadi.

Morfologiya so‘zlarning xususiyatlarini ularni so‘z turkumlariga ajratgan holda o‘rganadi. So‘zlarni so‘z turkumlariga ajratishda ularning semantik, morfologik va sintaktik xususiyatlari hisobga olinadi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR. Bir necha asrlar avval klassik arab tilshunosligida so‘zlar uchta yirik turkumga: ism, fe’l va harfga ajratilga hamda hozirgi kunga qadar shu shaklda saqlanib qolgan. O‘zbek tilida esa so‘zlar, avvalo, mustaqil, yordamchi va oraliqdagi so‘z turkumlariga ajratiladi. Mustaqil so‘z turkumlariga ot, sifat, son, fe’l, ravish va olmosh kirsa, yordamchi so‘z turkumlarini bog‘lovchi, ko‘makchi va yuklama tashkil qiladi. Shuningdek, ikkala guruhning ham xususiyatlarini o‘zida jamlagan oraqlidagi so‘zlar mavjud bo‘lib, ular undov, taqlid va modal so‘zlardan iboratdir.

Kelishik kategoriyasi arab tilidagi ism so‘z turkumiga, o‘zbek tilidagi ot so‘z turkumi va uning vazifasida keladigan so‘zlarga xos grammatic kategoriya hisoblanib, ularning boshqa so‘zlar bilan munosabatini ko‘rsatish uchun xizmat qiladi.

Kelishiklar soni va shakli turli tillarda tilning xususiyatlariga ko‘ra farqlanadi. Arab tilida kelishik so‘zlarning oxirgi unli tovushi – harakatining o‘zgarishi orqali ifodalanadi hamda ism turkumidagi so‘zlarning gapdagi vazifasini va boshqa bo‘laklar bilan munosabatini belgilab beradi.

Arab tilida kelishiklarning soni uchta:

1. *Bosh kelishik* – رفع (raf’), damma(ڻ) bilan ifodalandi;
2. *Tushum kelishigi* – نصب (nasb), fatha(ڻ)(bilan ifodalanadi;
3. *Qaratqich kelishigi* – جر (jarr), kasra(.) bilan ifodalanadi.

O‘zbek tilida esa kelishik so‘zlarning oxiriga maxsus qo‘sishchalar qo‘sish orqali hosil qilinadi hamda ot turkumidagi so‘zlar va otlashgan so‘zlarning gapdagi vazifasini va boshqa gap bo‘laklari bilan munosabatini ko‘rsatadi.

O‘zbek tilida oltita kelishik bor:

1. *Bosh kelishik* – qo‘sishcha qo‘shilmaydi;
2. *Qaratqich kelishigi* – qo‘sishchasi: -ning;
3. *Tushum kelishigi* – qo‘sishchasi: -ni;
4. *Jo‘nalish kelishigi* – qo‘sishchasi: -ga;

5. *O'rin-payt kelishigi* – qo'shimchasi: -da;
6. *Chiqish kelishigi* – qo'shimchasi: -dan.

Mazkur tillarda bosh kelishikdagi so'zning gapda bajaradigan sintaktik vazifasi o'xhash – asosan, ega yoki ot kesim bo'lib keladi:

يحب زيد قطنه -
Bu – *maktab* – هذه مدرسة

Arab tilida ham, o'zbek tilida ham qaratqich kelishigidagi so'z gapda qaratqich aniqlovchi vazifasini bajaradi:

رأيت بيت خالد -
Xolidning uyini ko'rdi –

Shuningdek, o'zbek tilidan farqli ravishda, arab tilida ko'makchi – predlogdan keyin kelgan so'z ham qaratqich kelishigida bo'ladi:

سمعت من المعلم -
Ustozdan eshitdim –

Arab va o'zbek tillarida tushum kelishigi bilan ifodalangan so'z vositasiz to'ldiruvchi vazifasini bajaradi:

أعطيت الكتاب إلى فاطمة -
Kitobni Fotimaga berdim –

Shuningdek, arab tilida tushum kelishigidagi so'z gapda hol vazifasini ham bajaradi:

دخلت الغرفة -
Xonaga kirdim –

جئت مساءً -
Kechqurun keldim –

O'zbek tilida esa hol sintaktik vazifasini, asosan, o'rin-payt, chiqish va jo'nalish kelishigida ifodalangan so'zlar bajaradi:

أذهب من البيت إلى الجامعة -
Uydan universitetga boraman –

يدرس محمد في طشقند -
Muhammad Toshkentda o'qiydi –

Arab tilida bu kelishikdagi so'zlar ma'nosi ko'makchi orqali ifodalanadi hamda yuqorida zikr qilinganidek, ko'makchidan keyin kelgan so'z tushum kelishigida ifodalanadi.

XULOSA. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, kelishik kategoriyasi ot va otlashgan so'zlarga xos bo'lib, ularning gapdag'i vazifasini va boshqa bo'laklar bilan sintaktik munosabatini belgilab beradi.

Arab va o'zbek tillarida kelishik kategoriyasi mavzusining bir qancha o'xhash va farqli jihatlari mavjud. Chet tili grammatikasini tushunishda ona tili bilan qiyoslash mavzuni yaxshiroq va osonroq o'rganishga yordam beradi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Turniyozov N., Rahimov A., O‘zbek tili. – Samarqand.: Zarafshon, 2006. – 180 b.
2. Sayfullayeva R., Zamonaviy o‘zbek tili. – Toshkent.: O‘zMU, 2009. – 522 b.
3. Каримов С., Ўзбек тилининг грамматик услубияти. – Самарқанд.: Зарафшон, 2012. – 164 б.
4. أبو القاسم الزجاجي. تحقيق الدكتور علي توفيق الحمد. الجمل في النحو. – بيروت. مؤسسة الرسالة. .523 صفة 1408هـ
5. أبو البقاء عبد الله بن الحسين العكبري. تحقيق غازي مختار طليمات والدكتور عبد الإله نبهان. اللباب في علل البناء والإعراب. الجزء الأول. – دمشق. دار الفكر. 2001م. صفة 1184م.

INSON HUQUQLARINI HIMoya QILINISHIDA, NODAVLAT TASHKIOTLARNING ROLI. (BMT MISOLIDA)

Kenjaev Jasur Omon o‘g‘li

O‘zbekiston Respublikasi IIV Maxsus-kasbiy fanlar kafedrasi katta o‘qituvchisi

ANNOTATSIYA: Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan keyin qo‘shilgan birinchi xalqaro-huquqiy hujjat bo‘ldi. Zero, demokratik, huquqiy davlat, kuchli fuqarolik jamiyatni barpo etish yo‘lini tanlagan O‘zbekiston inson huquqlari va manfaatlarini jamiyatni rivojlantirish va davlat qurilishining, butun ichki va tashqi siyosatining eng ustuvor yo‘nalishi etib belgiladi.

Kalit so‘zlar: inson huquqlari, xalqaro majburiyat, madaniy huquqlar , fuqarolik va siyosiy huquqlar, muhokama, nazariya, natija, xulosa.

KIRISH: Xalqaro universal tashkilot sifatida Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) doirasida inson huquqlarini himoya qilishning universal xalqaro mexanizm mavjud bo‘lib, u ko‘p tarmoqlangan tuzilmadan iborat. BMTning asosiy organlari ham, yordamchi organlari ham u yoki bu darajada inson huquqlarini himoya etishga taalluqli masalalar bilan shug‘ullanadilar.

BMT Bosh Assambleyası inson huquqlari sohasida rezolyusiyalar qabul qilish orqali a’zo-davlatlar e’tiborini inson huquqlari borasidagi muammolarga qaratadi va bu borada hamkorlik qilishga da’vat etadi.

Bosh Assambleyaning asosiy vazifalaridan biri inson huquqlari va asosiy erkinliklarini irqi, jinsi, tili va dinini ajratmagan holda amalga oshirishga ko‘maklashish maqsadida inson huquqlari masalalarini o‘rganish va tadqiq etish ishlarini uyushtirish hamda tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Nodavlat notijorat tashkiloti shaklidagi bu tuzilmalar soni bugungi kunda 10 mingdan oshdi. Ular turli jabhalarda inson huquqi va manfaatini ta’minalash yo‘lida faoliyat olib borish bilan birga, aynan shu yo‘nalishda ish olib boruvchi davlat organlariga ham yaqindan ko‘maklashmoqda. Shu ma’noda NNTlarni chinakam xalqchil tuzilmalar, desak mubolag‘a bo‘lmaydi

Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi XX asrning eng muhim hujjatlaridan biridir. U 350 dan ortiq tilgan tarjima qilingan. Deklaratsiya qabul qilinganiga 75 yil

bo‘lganiga qaramasdan, bugungi kungacha u davlatlar, shaxslar va nodavlat tashkilotlarning inson huquqlari sohasidagi faoliyatining asosi hisoblanadi.

Mazkur hujjat dunyoning deyarli barcha mamlakatlari tomonidan ratifikatsiya qilingan va boshqa hech qaysi xalqaro hujjat bunday sharafga da’vo qila olmaydi. Chunki unda sayyoramizda yashayotgan har bir insonning, u qaerda tug‘ilgani, yashayotgani, qaysi millatga mansubligi, qanday tilda so‘zlashishi, diniy e’tiqodidan qat’i nazar, bir xil huquq va erkinliklarga ega ekani belgilangan.

1948 yil 10 dekabrda BMT Bosh Assambleyasi tomonidan qabul qilingan Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi bugungi kunda ma’lum bo‘lgan inson huquqlari tushunchasining tub mohiyatini ochib berdi. Deklaratsiya turli siyosiy tizimlarga ega bo‘lgan davlatlarda inson huquqlarini bir xilda tushunish uchun shart-sharoitlarni yaratib, inson huquqlari sohasida standartlashtirishga asos soldi.

1943-1945 yillarda Birlashgan Millatlar Tashkiloti Nizomini ishlab chiqish jarayonida Inson huquqlari deklaratsiyasini ishlab chiqish zarurligi masalasi ko‘tarilgan. Nima uchun aynan shu paytda inson huquqlarini xalqaro darajada himoya qilish mexanizmini yaratish muammosi bunchalik dolzarb ahamiyat kasb etdi va uni yangi xalqaro tashkilotni yaratish bilan bog‘lash qanchalik asosli edi?

Buning sababi Deklaratsiya Muqaddimasida bayon qilingan. Jumladan, unda inson huquqlarini mensimaslik va uni poymol etish insoniyat vijdoni qiynaladigan vahshiyona ishlar sodir etilishiga olib kelganini, kishilar so‘z erkinligi va e’tiqod erkinligiga ega bo‘ladigan hamda qo‘rquv va muhtojlikdan holi sharoitda yashaydigan dunyoni yaratish, inson huquqlari qonun kuchi bilan himoya etilishi zarur ekanligini e’tiborga olib, barcha xalqlar va barcha davlatlar bajarishga intilishi lozim bo‘lgan vazifa sifatida ayni Deklaratsiya ishlab chiqilgani ta’kidlangan.

Natsistlar Germaniyasining Ikkinci jahon urushi bilan bog‘liq vahshiyliklari jamoatchilikka ma’lum bo‘lgach, BMT Nizomida inson huquqlarini yetarlicha aniq belgilanmaganligi, hali himoya qilinishi lozim bo‘lgan jihatlar juda ko‘pligi ayon bo‘ldi. Shuni ta’kidlash kerakki, BMT Nizomida “inson huquqlarini himoya qilish” kabi atamalar ishlatilmagan, faqat “inson huquqlariga hurmatni rag‘batlantirish va rivojlantirish” jumlasigina qo‘llangan. Ushbu holatda shaxsning huquqlarini batafsil sanab o‘tadigan va tavsiflaydigan umumjahoniy bir hujjat zarur edi.

Shu ma’noda, Deklaratsiyani Ikkinci jahon urushi davomida sodir bo‘lgan vahshiyliklarga xalqaro hamjamiatning javobi sifatida tushunish mumkin. Dunyoning yarmi vayronaga aylangan, millionlab odamlar halok bo‘lgan, insoniyat hayoti izdan chiqqan o‘sha davrda Deklaratsiya bunday dahshatli harakatlarning takrorlanishiga hech qachon yo‘l qo‘ymaslik uchun xalqaro majburiyatni belgilab berdi.

Shunday qilib, tarixda birinchi marta inson huquqlari bo'yicha normalar umumlashtirilib, 30 ta moddadan iborat yagona hujjat shakliga keltirildi. Shundan:

- 3 ta moddada – erkinlik va tenglikning asosiy tamoyillari;
- 20 ta moddada – fuqarolik va siyosiy huquqlar;
- 6 ta moddada – ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy huquqlar;
- 1 ta moddada – shaxsning majburiyatlari belgilandi.

Bugungi kunda deyarli barcha huquqshunos olimlar Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasini inson huquqlarini universallashtirishning asosi deb biladi. Chunki birinchi marta inson huquqlari bo'yicha xalqaro standartlar aynan shu hujjatda birlashtirilidi.

Hozirgi vaqtida ushbu hujjat, o'zining tavsiyaviy xarakterga ega ekanligiga hamda siyosiy xususiyatiga qaramasdan, butun xalqaro hamjamiyat tomonidan xalqaro-huquqiy majburiyatlarni keltirib chiqaradigan hujjat sifatida tan olingan. U inson huquqlarini himoya qilishning xalqaro tizimini rivojlantirishda yangi sahifa ochgan hujjatdir.

Deklaratsiya har qanday demokratik jamiyatda inson huquqlari sohasidagi xalqaro standartlarning hurmat qilinishi va ularga amal qilinish darajasini aniqlash uchun mezon vazifasini bajaradi. Unga barcha davlatlar va xalqlar bajarishi lozim bo'lgan vazifa sifatida qaraladi.

Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, uning nomidan ko'rinish turibdiki, universaldir. Ya'ni, undagi normalar dunyoning barcha mamlakat-laridagi barcha odamlarga tegishli.

Deklaratsiyaning asosiy tamoyil va qoidalari jahondagi aksariyat davlatlarning Konstitutsiyalaridan joy oldi hamda ularning inson huquqlari sohasidagi milliy qonunchiligi rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi va milliy huquqning tarkibiy qismiga aylandi. Xususan, hozirgi vaqtida 1948 yildan keyin qabul qilingan 100 dan ortiq davlatlarning milliy Konstitutsiyalarida Deklaratsiya qoidalariiga uyg'un va hamohang ko'plab moddalar mavjud.

Deklaratsiya inson huquqlari bo'yicha boshqa ko'plab xalqaro majburiy ahamiyatga ega bo'lgan pakt va konvensiyalarni, xartiya va boshqa shartnomalarni ishlab chiqish uchun asos yaratdi. Shu nuqtai nazardan, u barcha mamlakatlarda rag'batlantirilishi va himoya qilinishi kerak bo'lgan inson huquqlari bo'yicha universal standartlar uchun aniq "yo'lchi yulduz" vazifasini bajardi, desak, o'rinli bo'ladi.

Deklaratsiya inson huquqlari to'g'risidagi xalqaro normalarni yaratish bo'yicha huquq ijodkorligining boshlang'ich nuqtasi bo'lGANI uchun ham unda insonning asosiy huquq va erkinliklarini to'laqonli ifodalash mumkin emas. Aynan shu omil keyinchalik 1966 yil 16 dekabrda Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risida xalqaro pakt va

Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to‘g‘risida xalqaro paktning qabul qilinishiga sabab bo‘ldi.

Mazkur paktlarda Deklaratsiyada nazarda tutilgan huquq va erkinliklar yanada aniqlashtirildi hamda to‘ldiradi. Ular Deklaratsiyadan farqli ravishda majburiy xarakterga ega. Dunyoning ko‘plab davlatlari ushbu ikki paktning ishtirokchilari hisoblanadi, bu ularga ushbu paktlarda belgilangan huquq va erkinliklarni ta’minlash majburiyatini yuklaydi.

Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risida xalqaro pakt hamda uning ikkita qo‘sishma protokoli, shuningdek, Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to‘g‘risida xalqaro pakt Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi bilan birgalikda Inson huquqlari to‘g‘risidagi xalqaro billni tashkil etadi.

Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan keyin qo‘shilgan birinchi xalqaro-huquqiy hujjat bo‘ldi. Zero, demokratik, huquqiy davlat, kuchli fuqarolik jamiyatni barpo etish yo‘lini tanlagan O‘zbekiston inson huquqlari va manfaatlarini jamiyatni rivojlantirish va davlat qurilishining, butun ichki va tashqi siyosatining eng ustuvor yo‘nalishi etib belgiladi.

Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining qoidalari O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, insonning shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquq va erkinliklarining ishonchli himoya qilinishini ta’minlaydigan milliy qonunchilik normalarida o‘z ifodasini topgan.

Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi O‘zbekistonda demokratiya va insonparvarlik tamoyillarini qaror toptirish yo‘lida katta ahamiyat kasb etdi. Endigma mustaqillikka erishgan O‘zbekiston o‘z Konstitutsiyasini, undagi inson huquq va erkinliklarini ta’minlovchi normalarni shakllantirishda Deklaratsiya dasturilamal vazifasini bajargan.

Ta’kidlash joizki, 1992 yilda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining “Inson va fuqarolarning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlari” deb nomlangan ikkinchi bo‘limida Deklaratsyaning deyarli barcha norma va qoidalari o‘z ifodasini topgan bo‘lsa, joriy yilning 30 apreli dagi referendum natijasida qabul qilingan Yangi tahrirdagi Konstitutsiyada Deklaratsiya bilan birga, Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risida xalqaro pakt hamda Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to‘g‘risida xalqaro pakt normalari ham ancha keng o‘rin oldi.

Shu ma’noda, bugungi kunda O‘zbekiston Konstitutsiyasini Inson huquqlari to‘g‘risidagi xalqaro bill normalarini o‘zida mujassamlashtirgan yetuk huquqiy hujjat sifatida e’tirof etish mumkin.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiya mamlakatimiz tarixida birinchi marta Deklarasyining 1-moddasida mustahkamlangan inson huquqlarining tabiiy xususiyatini e'lon qildi. Konstitutsiyaning 19-moddasida inson huquq va erkinliklari har kimga tug'ilganidan boshlab tegishli bo'lishi belgilab qo'yildi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi 15-moddasida O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari xalqaro huquqning umume'tirof etilgan prinsip va normalari bilan bir qatorda O'zbekiston Respublikasi huquqiy tizimining tarkibiy qismi ekanligi hamda milliy qonunchilikka nisbatan ustun ahamiyatga egaligi tan olingani, ayniqsa, diqqatga sazovordir.

Shu bilan birga, Konstitutsiyamizning 19-moddasida O'zbekistonda insonning huquq va erkinliklari xalqaro huquqning umume'tirof etilgan normalariga binoan e'tirof etilishi va kafolatlanishining belgilanishi, Deklaratsiyaning inson huquqlari bo'yicha umume'tirof etilgan norma sifatida mamlakatimizda to'g'ridan-to'g'ri amal qilishi nazarda tutilgan.

So'nggi yillarda mamlakatimizda BMTning boshqa hujjatlari qatori Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasida belgilangan normalarni hayotga tatbiq etishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

BMT Bosh kotibi Antonio Gutterish Xalqro inson huquqlari kuni munosabati bilan yo'llagan murojaatida barcha davlatlami Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi qabul qilinganliging 75 yilligi munosabati bilan inson huquqlarini himoya qilish bo'yicha faol harakatlarni amalga oshirishga, ushbu sohada yuzaga kelgan muammolarni hal qilishga chaqirdi.

Shu munosabat bilan joriy yilning 12 may kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi qabul qilinganligining 75 yilligini keng nishonlash to'g'risida" farmoni qabul qilindi. Farmon bilan Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi qabul qilinganligining 75 yilligiga bag'ishlangan tadbirlar dasturi tasdiqlandi.

Ushbu Farmon nazarda tutilgan chora-tadbirlarning amalga oshirilishi Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasida mustahkamlangan huquq va erkinliklarning ta'minlanishi bo'yicha davlat siyosatini izchil amalga oshirish va tizimlashtirishga xizmat qiladi. Shuningdek, mamlakatimizda inson huquqlarini himoya qilish va uni targ'ib qilish, ushbu sohadagi xalqaro hamkorlikni yanada rivojlantirishga yordam beradi.

Muxtasar aytganda, Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi axloqiy, huquqiy va siyosiy ahamiyatga ega bo'lib, inson huquqlari konsepsiyasini doimiy ravishda kengaytirish va takomillashtirish uchun katta ahamiyatga ega hujjatdir. Binobarin, agar

8. Xushvaktov, B., Mirzayev, M., & Zokirov, M. (2023). FLOKULYANTLARNI QO'LLAB CHINNI ISHLAB CHIQARISH KORXONASINING OQOVA SUVLARINI TOZALASH. *Interpretation and Researches*, 1(18). извлечено от <http://interpretationandresearches.uz/index.php/iar/article/view/1519>.

9. Xushvaqtov, B., Mirzayev, M., & Asadullayev, F. (2023). SANOAT KORXONASI OQOVA SUVLARINI XROM (III) DAN TOZALASH. *Interpretation and Researches*, 1(8). 361-366 извлечено от <http://interpretationandresearches.uz/index.php/iar/article/view/570>.

10. Oralovich, B., & Namazovich, M. (2023). XROM (III) DAN IBORAT SANOAT OQOVA SUVLARINI TOZALASH. "Science Shine" International Scientific Journal, 7(1). Retrieved from <http://science-shine.uz/index.php/ilmnuri/article/view/101>.

11. Xushvaktov, B. O. (2023). YAKKA TARTIBDA JOYLASHGAN KICHIK AHOLI HUDUDINING OQOVA SUVINI TOZALASH. Innovative development in educational activities, 2(24), 396–400. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10445385>.

TA'LIM TIZIMINI RIVOJLANTIRISHDA O'ZBEK TILINING SOHADA QO'LLANISHINING ROLI

Haydarova Zilola

Jizzax davlat pedagogika universiteti o'qituvchisi

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada O'zbek tilining sohada qo'llanishi vazifalari haqida so'z boradi. Talabalarga soha bo'yicha egallagan bilimlarni yozma va og'zaki ravishda o'zbek tilida ifoda etish malakalarini takomillashtirish, sohada qo'llaniladigan terminlar, asosiy tushunchalar va soha doirasida qo'llaniladigan hujjatlarning rasmiylashtirilishini ta'minlash, nutq uslublari, xususan sohada ilmiy va rasmiy uslub imkoniyatlaridan foydalanish hamda ularni amaliyotga tatbiq etish ko'nikmasini hosil qilishdan iborat ekanligi ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar: uzlusiz ta'lim, turkiy tillar, soha, nutqiy kompetentlik, mutaxassislik, og'zaki va yozma nutq, sohaviy terminlar, k o'nikma, malaka.

АННОТАЦИЯ

В данной статье говорится о цели и задачах использования узбекского языка в различных сферах. Совершенствование навыков студентов письменно и устно излагать свои знания в данной области на узбекском языке, обеспечивать формализацию используемых в данной области терминов, основных понятий и официальных документов, используемых в данной области, стилей речи, особенно научного и официального в узбекском языке и применение их на практике.

Ключевые слова: непрерывное образование, тюркские языки, сфера, речевая компетенция, специальность, устная и письменная речь, отраслевые термины, навык, квалификация.

ABSTRACT

This article talks about the purpose and tasks of the use of the Uzbek language in the field. To improve the skills of students to express their knowledge in the field in writing and orally in Uzbek, to ensure the formalization of the terms used in the field, basic concepts and documents used in the field, speech styles, especially scientific and official in the field it is emphasized that it consists in creating the ability to use the opportunities of the style and to put them into practice.

Key words: continuing education, Turkish languages, field, speech competence, specialty, oral and written speech, field terms, skill, qualification.

KIRISH

Mustaqil O'zbekistonning ravnaqi yo'lida barcha sohalardagi kabi ta'lim tizimida ham olib borilayotgan keng qamrovli ishlar, jamiyat taraqqiyotini ta'minlash, uzlusiz ta'lim tizimini joriy etish alohida ahamiyat kasb etmoqda. Shuningdek, erkin, ijodkor va mustaqil fikr egasini tarbiyalab voyaga yetkazish hozirgi kunning muhim vazifalaridan hisoblanadi. Respublikamizda eng avvalo, ta'limga alohida e'tibor qaratildi. Chunki muhtaram Prezidentimizning: "Har birimiz davlat tiliga bo'lgan e'tiborni mustaqillikka bo'lgan e'tibor deb, davlat tiliga ehtirom va sadoqatni ona Vatanga ehtirom va sadoqat deb bilishimiz, shunday qarashni hayotimiz qoidasiga aylantirishimiz kerak" ¹ degan fikrlari barchamizdan ona tilimizga, urf-odat va qadriyatlarimizga hurmat, Vatanga bo'lgan mehrimizni amaliy faoliyatda namoyon etishimizni talab etadi.

Til kishilarning eng muhim aloqa vositasi, bilimlarni saqllovchi va kelajak avlodga yetkazuvchi vositadir. Ana shu vazifalarini e'tiborga olganda, birinchidan, til ijtimoiy hodisadir. Chunki u jamiyat uchun xizmat qiladi. Ikkinchidan, ijtimoiy xarakterga ega bo'lgan til muayyan fizik va fiziologik jarayonlar asosida moddiylashadi. Uchinchidan, til va tafakkur o'zaro ajralmasdir. Til fikrni, shakllantiruvchi va ifodalovchi moddiy vositadir. Bu jihatdan til va tafakkur muayyan shaklni o'zida namoyon etadi. To'rtinchidan, til uzlusiz rivojlanib, takomillashib boruvchi hodisadir. Kishilar odatda bir-birlari bilan til orqali munosabatda bo'ladi. Demak, til va tafakkur chambarchas bog'liq bo'lib, tilsiz fikrni ifodalab bo'lmanidek, tafakkursiz til o'z ifodasini shakllantira olmaydi. Fikr tilda voqelashadi, tilda mavjud bo'ladi. Ongingizda paydo bo'ladigan fikrning mohiyatini, mazmunini tashkil etadigan har qanday idrok yoki tasavvur ham faqat so'zlar vositasi orqali voqe bo'ladi. Til faqat kishilarga xos bo'lganidek, tafakkur ham kishilarga xos bo'lib, bosh miyaning moddiyligi va fiziologik vazifasi bilan bog'liqdir. Lekin tafakkur bilan tilni aynan bir xil, bir-biriga o'xshash narsa deb tushunish xatodir. Tafakkur – tashqi moddiy olamning kishilar miyasida aks etishining eng yuksak shaklidir. Til esa tafakkurni so'zlar, so'z birikmalari va jumlalar orqali ifodalaydi. Til qonunlari bilan tafakkur qonunlari bir-biriga teng kelmaydi. Shuning uchun ham til grammatikaning o'r ganish obyekti hisoblansa, tafakkur mantiq ilmining o'r ganish obyektidir.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Til – boy tariximiz, hayotbaxsh qadriyatlarimiz, dinimiz, xalqimizga xos dunyoqarashni ko'rsatuvchi ko'zgu, ajodolar merosini avlodlarga yetkazuvchi vositadir. Shuning uchun ham o'z tilini yo'qotgan millat o'zligidan mahrum bo'ladi. O'zbek tili turkiy tillar guruhiga mansub bo'lib, u mustaqil til sifatida XI asrdan

boshlab shakllana boshladi va to hozirgi kunimizgacha bu tilda ko‘plab ilmiy va badiiy asarlar yaratildi. Til fikr ifodalashning muhim vositasidir. Tafakkur bilan tilning munosabati murakkab jarayondir. Til fikr ifodasi sifatida mavjud, o‘z navbatida fikr til asosida yuzaga keladigan murakkab jarayon. Til ham, tafakkur ham mehnat jarayonida, kishilik jamiyatida shakllangan.

Til – millatning asosiy belgilaridan, davlat mustaqilligining asosiy ramzlaridan biri. O‘zbek tili dunyoning eng qadimiylari va boy tillaridan biri hisoblanadi. Bu tilning keng imkoniyatlari qadimgi toshbitiklarda, Mahmud Qoshg‘ariyning “Devonu lug‘atit-turk”, Ahmad Yugnakiyning “Hibatul haqoyiq”, Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asarlari, Ahmad Yassaviy hikmatlari, Alisher Navoiyning “Xazoyin ul-maoniy”, “Xamsa”, Boburning “Boburnoma” asarlarida, Boborahim Mashrab, Ogahiy, Uvaysiy, Nodira kabi mumtoz shoirlarimiz va XX asrdagi adiblarimiz ijodida jilolanib turibdi.

O‘zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi, davlat ishlarining, ta’lim-tarbiya, targ‘ibot-tashviqot ishlarining shu tilda olib borilishi uchun juda katta imkoniyat yaratdi. Tilga bo‘lgan munosabat tubdan o‘zgardi, uning barcha imkoniyatlarini o‘rganish ishlari keng ko‘lamda olib borilyapti.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2019 yil 21 dekabrdagi “O‘zbek tilining davlat tili sifatini, nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5850-sonli Farmoni, O‘zbekiston Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 12-dekabrdagi “Davlat tilini rivojlantirish departamenti to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 984-sonli Qarori, O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2019 yil 2 dekabrdagi 87-06-52 sonli xatida “2020-2030 yillarda o‘zbek tilini rivojlantirish hamda til siyosatini takomillashtirish Konseptsiyasi” va ”Yo‘l xaritasi” loyihasida davlat tilini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari, vazifalari sohaga oid dasturlar va kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish o‘z ifodasini topgan. Bu hujjalarning davlat tilini o‘rgatish va uni bilish darajasini yanada takomillashtirish uchun oliy ta’lim muassasalarida 2020-2021 o‘quv yilidan boshlab “O‘zbek tilini sohada qo‘llanilishi” asosiy fan sifatida o‘quv rejasiga kiritildi. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, Davlat dasturi, Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining buyrug‘i asosida o‘quv jarayoniga tatbiq etib kelinayotgan mazkur kurs “Davlat tili haqida”gi qonunning quyidagi moddalariga tayanadi:

7-modda. Davlat tili rasmiy amal qiladigan doiralarda o‘zbek adabiy tilining amaldagi ilmiy qoidalari va normalariga rioya etiladi.

Davlat o‘zbek tilining boyitilishi va takomillashtirilishini ta’minlaydi, shu jumladan unga hamma e’tirof qilgan ilmiy-texnikaviy va ijtimoiy-siyosiy atamalarni joriy etish hisobiga ta’minlaydi.

Yangi ilmiy asoslangan atamalar jamoatchilik muhokamasidan keyin va Oliy Majlis tegishli qo'mitasining roziligi bilan o'zbek tiliga joriy etiladi.

9- modda. Davlat hokimiyati va boshqaruv organlarida ish davlat tilida yuritiladi va zaruriyatga qarab boshqa tillarga tarjima qilinishi ta'minlanadi.

10- modda. Korxonalar, muassasalar, tashkilotlar va jamoat birlashmalarida ish yuritish, hisob-kitob, statistika va moliya hujjatlari davlat tilida yuritiladi, ishlovchilarining ko'pchiligi o'zbek tilini bilmaydigan jamoalarda davlat tili bilan bir qatorda boshqa tillarda ham amalga oshirilishi mumkin (1, 16-22-b.).

Mazkur fanni o'qitishdan maqsad, talabalarning o'zbek tilida soha b o'yicha nutqiy kompetentligini oshirish, mutaxassisikka oid og'zaki va yozma nutqida sohaviy terminlarni samarali qo'llash ko'nikmalarnini shakllantirishdan iborat. Shuningdek, talabalarga soha bo'yicha egallagan bilimlarni yozma va og'zaki ravishda o'zbek tilida ifoda etish malakalarini takomillashtirish, sohada qo'llaniladigan terminlar, asosiy tushunchalar va soha doirasida qo'llaniladigan hujjatlarning rasmiylashtirilishini ta'minlash, nutq uslublari, xususan sohada ilmiy va rasmiy uslub imkoniyatlaridan foydalanish hamda ularni amaliyotga tatbiq etish ko'nikmasini hosil qilishdan iborat. Fanning vazifasi-mamlakatimiz ijtimoiy hayotining barcha sohalarida davlat tilining imkoniyatlaridan to'liq va to'g'ri foydalanishga erishishni ta'minlash, egallanayotgan soha bo'yicha nazariy bilimlarni, amaliy ko'nikmalarni o'zbek tilining yozma va og'zaki nutqi me'yor va qoidalari asosida mukammal o'zlashtirishga va ularga nisbatan shaxsiy munosabatni o'zbek tili adabiy normalariga muvofiq holda ifodalashga erishishni ta'minlahshdan iborat.

Keyingi yillarda tilimizning kasb-hunar, ilmiy-texnika tili va atamalarida katta o'zgarishlar sodir bo'ldi.

Har bir sohaning o'z atamalar tizimi mavjud bo'lib, bitta atama faqat bitta tushunchanigina ifodalaydi. Atamalarni qo'llashda har qanday murakkab fikrni ixcham, oson, lo'nda va aniq, shuningdek, tushunarli ifodalashni osonlashtirish maqsad qilib quyiladi. Atamalarga xos bo'lgan ma'no jihatidan aniqlik, tushunchaning mohiyatini yoki eng asosiy belgisini aniq ifodalab berish, ulardagi tuzilish jihatidan ixchamlik, qisqalik ishlatishga qulaylik kabilar tushunchani tushunarli, aniq, qisqa bo'lishini ta'minlaydi. Oliy o'quv yurtlarida sohaga oid imlo va izohli lug'atlari tayyorlanmoqda, chop etilmoqda. Mavjud lug'atlardan keng foydalanish, so'z va atamalar ma'nosini chuqur anglash kishining so'z boyligini oshirishda katta ahamiyatga ega.

XULOSA

Ma'lumki, yaqin vaqtlargacha hujjatlar asosan rus tilida rasmiylashtirilar edi. O'zbek tilida esa ayrim hujjatlarga yuritilar, ular ham rus tilidagi hujjatlar

andozasiga asoslangan bo‘lib, milliylikdan yiroq edi. Endilikda respublikamizdagi barcha korxonalar, tashkilotlar, muassasalarda yuritiladigan hujjatlar o‘zbek tili qonun-qoidalariiga mos ravishda rasmiylashtirilmoqda.

Oliy o‘quv yurtlarini bitirib chiqayotgan yosh mutaxassislar o‘zlarini ishga boradigan mehnat jamoalarida ish qog‘ozlari, hujjatlarning mantiqiy to‘g‘ri yozilishi, yoki to‘g‘ri to‘ldirilishi, ishoraviy, imloviy, uslubiy xatolarsiz, davr talabiga javob beradigan tarzda rasmiylashtirishlari lozim. Buning uchun esa bitiruvchi talabalarimiz nafaqat hujjatlar bo‘yicha, balki yangi alifbo va imlo qoidalari bo‘yicha ham yetarlicha tushunchaga ega bo‘lishlari talab etiladi. Va shu maqsadda hozirda bu fan barcha o‘quv yurtlarida o‘qitilmoqda.

ADABIYOTLAR

1. Abdurahmonova M., Fattoxova D., Xalmuxammedova U., Inogamova N., Egamberdiyeva N. O‘zbek tili (o‘quv qo‘llanma). – Toshkent: Mumtoz so‘z, 2018.
2. Aminov M., Madvaliyev A., Mahkamov N., Mahmudov N. Ish yuritish (amaliy qo‘llanma). – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2017.– 456 b.
3. Rahmonov N., Boltaboyev H. O‘zbek mumtoz adabiyoti namunalari. 1-2 jild. T., 2013, 2015.
4. Boltaboyev H. Adabiyot ensiklopediyasi. 1-2 jild. T., 2015, 2019.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktyabrdagi “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5850 – son qarori.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-yanvardagi “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Atamalar komissiyasining faoliyatini tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-40 son qarori
7. Ahmedova M.X., Gayubova K.A. “O‘zbek tili”. T. TATU, “Aloqachi”, 2019.
8. Jivanova N., Mo‘minova O., Maksumova S. Nutq madaniyati. Ma’ruzalar matni. Toshkent, 2016. I-kitob
9. O‘zbek tilining izohli lug‘ati (5 jildli). – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2005–2008.
10. Abdunazarov, A. O. (2021). AQLI ZAIF BOLALARNI IJTIMOIY HAYOTGA TAYYORLASHNING USTUVOR YO‘NALISHLARI. *Academic research in educational sciences*, 2(12), 670-678.
11. Abdunazarov, A., & Abdunazarov, A. (2020). Экологик таълим-тарбия ва ташвиқот. *Архив Научных Публикаций JSPI*, 1-12.
12. Fattoxova D.A O‘zbek tilini sohada qo‘llanishi Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences 2023-yil 1-soni

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI HUDUDIDA SEYSMOAKTIV HUDUDLAR VA ZILZILANING XAVFLILIGI

Xidirova Dildora

Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti

“Mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi” kafedrasi dotsent

Muradov Sirojiddin

Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti

“Mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi” kafedrasi stajyor-o‘qituvchi

Qarshi, O‘zbekistan

sirojiddinmuradov0@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada, zilzila, uning kelib chiqish sabablari, uning shakllari haqida ma'lumotlar taxlili olib borilgan bo'lib, respublikamiz hududi seysmoaktiv halotiga ko'ra guruhlarga ajratish yo'li bilan taxlil etilgan. Maqola mehnat muhoazasi va texnika xavfsizligi yunalishlari talablari, mehnat muhofazasi va xavfsizlik mutaxassislari hamda keng izlanuvchilar uchun muljallangan.

Kalit so‘zlar va iboralar: “Zilzila, eposentr, geposentr, sesmiologiya, relyef, silkinishlar, seysmoaktiv.”

Kirish. Yer ichki qismidan uning sirtiga tomon yo'nalgan kuch ta'siridan yer po'stining ayrim qismlarini to'satdan silkinishiga zilzila deyiladi. Ba'zan silkinishlar tashqi faktorlar (tog'dagi qulashlar, katta meteoritning yer yuzasiga tushishi va b.) dan ham bo'lishi mumkin. Bir necha yuz yillar davomida to'plangan ma'lumotlar bu hodisani planetamizning ayrim seysmik zonalarda ko'p bo'lib turishini ko'rsatadi. Er yuzasini yemiruvchi, buzuvchi zilzilalarning ko'pi Pireney, Alp, Apennin, Karpat, Bolkrn, Kavkaz tog'lariga va O'rta Osiyoning tog'li rayonlariga, janubda Hindiqush, Himolay tog'lariga va Tinch okean halqasiga to'g'ri keladi. Ba'zi joylar borki, u yerda butunlay yoki deyarli zilzila bo'lmaydi, bunday yerlar (Germaniya, Polsha pasttekisligi, Rossiya tekisligi, Finlyandiya, Kola yarim oroli, Kanada, Braziliya va h. k.) aseysmik o'lkalar deb ataladi. Zilzila sabablarini seysmologiya fani o'rganadi. Zilzila yer po'stining ostki qismidagi massalarning, jumladan, mantiyadagi saralanish protsessida kuchli harakat paydo bo'ladi va tebranma to'lqinlar zilzila markazidan atrofga va yer yuzasiga tarqaladi. Zilzilaningdastlabki harakatidan keyin ham yer

ichida saqlanib qolgan ortiqcha energiya va yer po'stini ayrim qismlarini tebranishiga sabab bo'ladi.

Tadqiqot metodlari. Tadqiqot jarayonida ilmiy va o'quv-uslubiy adabiyotlar tahlili, pedagogik-tarixiy kuzatuv, umumlashtirish, metodlaridan foydalanildi.

Tadqiqot natijalari va muhokamalar. Respublikamizning g'arbiy hududida 1976, 1984 yillarda yuz bergan 8-10 balli Gazlidagi yer silkinishlarini ba'zi olimlar ana shu hududdagi mavjud gaz konlari va ulardan gazni so'rib olish jarayoni bilan bog'lashadi. 1976 yildagi Gazli yer silkinishining giposentri (zilzila o'chog'i, litosferaning ma'lum chuqurlikdagi tog' jinslari qatlamlarining uzilishi, surilish joyi) yer qobig'ining 5-25 km chuqur oralig'ida, 1984 yilgi yer silkinishida esa 50-200 km oralig'ida joylashgan. Yer silkinish hodisasini vujudga keltiruvchi energiyaning yig'ilishi, sarflanish darjasи, silkinish hududlaridan so'rib olingan gazning miqdori, yer qa'ri tog' jinsi qatlamlariga tushayotgan tabiiy bosimning mutanosibligini ma'lum darajada buzilganligini oqibati zilzilaning sodir bo'lish vaqtini tezlashtiradi.

Xuddi shunga o'xshash holat 1966 yildagi Toshkent zilzilasida ham kuzatilgan. Unda 8 balli silkinish sodir bo'lib, imoratlarga, katta qurilishlarga ziyon yetgan. Silkinishlar bir necha kungacha vaqtqi-vaqt bilan takrorlanib turgan. Buning oqibatida 35 mingdan ortiq uylar vayron bo'lib, 78 ming oila boshpanasiz qolgan, 2 mln. kvadrat metr yerdagi turar joylar, 7600 o'rinli maktablar, 2400 o'rinli maktabgacha tarbiya muassalari ishdan chiqqan, 690 savdo va 84 turli korxona idoralari ziyon ko'rgan.

Yer silkinishi keltiradigan talofat inshootning turiga, konstruksiyasiga bog'liq bo'lishi bilan bir qatorda, qurilish maydonlarining muhandis-geologik sharoitiga, ya'ni tog' jinslari turlarining mustahkamligi darajasiga, xossa va xususiyatlariga bog'liq. Masalan, 1966 yili Toshkent shahrida bo'lgan silkinish natijasida shaharning yer osti suvleri sathi yer yuzasiga yaqin bo'lgan pastqam joylarga joylashgan imoratlar kuchli talofat ko'rdi. Shundan keyin 1966 yili shahar hududida qayta muhandis-geologik xaritalash ishlari o'tkazilib, shahar markazi tuproq sharoiti nuqtayi nazaridan 9 ballik mintaqaga o'tkazildi. Bu degan so'z, 9 ballik mintaqada quriladigan inshootlar konstruksiyasiga va usuliga ma'lum talablar qo'yish va ularni bajarishni talab qiladi.

Seysmoaktiv hududlarda qurilish ishlarini olib borishda davlat tomonidan tasdiqlangan qonun-qoidalarga, talablarga rioya qilinmog'i zarur. Ya'ni shahar qurilishida imoratlarning balandligiga va shakliga katta talablar qo'yiladi, ular quyidagilardan iborat:

- shahar hududida katta-katta ochiq maydonlarning bo'lishi, ya'ni silkinish sodir bo'lgan taqdirda va undan keyin odamlarning yashashi uchun yengil qurilmalar qurish uchun xavfsiz joy zarur;
- suv havzalarining bo'lishi, ya'ni zilzila vaqtida chiqishi mumkin bo'lgan

yong‘inlarni o‘chirish maqsadida foydalanish uchun suv zaxirasiga ega bo‘lish;

- inshootlar orasidagi masofa, inshoot balandligidan 1,5 martda katta bo‘lishi, chunki imorat talafot ko‘rganda bir-biriga ta’sir qilmasligi kerak.


Afsuski, hozirgacha yer silkinishini aniq vaqtini va joyini ayta oladigan uslub yo‘q. Lekin yerning tavsifli xususiyatlari, tirik mavjudodlarning xatti-harakatlari o‘zgarishiga qarab olimlar yer silkinishi haqida muhim ma’lumotlarni beradilar.

Yer silkinishini belgilaydigan ayrim ko‘rsatkichlar quyidagilardan iborat: kuchsiz tebranish chastotasining keskin o‘sishi, yerning deformatsiyalanishi, tog‘ jinslarining elektr qarshiligi o‘zgarishi, yer osti suvlar sathining ko‘tarilishi, yer osti suvlarida radon miqdorining ortishi va boshqa o‘zgarishlar. Bulardan tashqari, yer silkinishi oldidan uy hayvonlarining xatti-harakatlari ham o‘zgaradi. Masalan, mushuklar tashqariga chiqib ketadilar, qushlar o‘z uyalaridan uchib chiqadilar, chorva mollar juda bezovta bo‘lib qoladilar va boshqalar.

Fan va texnikaning rivojlanishi so‘zsiz yer silkinishini oldindan bashorat qilish imkoniyatini beradi. Jumladan, yuqorida ta’kidlanganidek, yer osti suvlarida yer silkinishidan oldin radon gazi miqdorini oshish qonunini birinchi bo‘lib o‘zbek olimlari tomonidan aniqlangan va bu qonuniyat Toshkent zilzilasi oqibatlarini o‘rganishda o‘z tasdig‘ini topdi.

Hozirgi kunda bu usul bilan Respublikamizda va Markaziy Osiyo davlatlarida ro‘y bergan bir necha zilzilalar bashorat qilindi va ular tasdiqlandi. O‘zbekiston olimlarining bunday kashfiyoti bilan qiziqib Amerika olimi O. Jeyms shunday degan edi: «Yaqin kunlarda o‘zbek mutaxassislari zilzila haqidagi bashoratni xuddi iqlim sharoitini bashorat qilgandek radio orqali e’lon qilish darajasiga etib boradilar». Lekin bu yerda shuni aytib o‘tish kerakki, yer silkinishni oldindan bashorat qilish muammosi hali butunlay hal etilmagan. Bunga birdan-bir sabab bu masalaning murakkabligi, ya’ni zaminida yer silkinish jarayonini vujudga keltiradigan giposentr-o‘choqning nihoyatda yashirinligi hamda shu «o‘choqda» yig‘ilgan va yer silkinishiga olib keladigan energiyaning hamda uning sodir bo‘lish qonuniyatlarini hali yetarlicha bilmasligimizdadir.

Xulosa. O‘zbekistonning seysmoaktiv hududlari xaritasi 1977 yilgacha amal qilib keldi, hozirda O‘zbekistondagi ko‘plab seysmolog, geolog, muhandis olimlarning uzoq yillar mobaynida o‘tkazgan tadqiqotlari va kuzatishlari natijasida 1996 yilda O‘zbekiston Fanlar Akademiyasining seysmologiya instituti tomonidan O‘zbekistonning yangi seysmoaktiv xaritasi tuzilib, bunda har bir hududning seysmologik xususiyatlari hisobga olingan (**1- rasm**).



1-rasm. O'zbekiston Respublikasining seysmik rayonlashtirish xaritasi

Xaritada ko'rsatilishicha seysmik rayonlashtirish MSK-64 skalasi bo'yicha quyidagi 3 toifadagi mintaqalarni (zonalarni) belgilashga qaratilgan:

- Zona $1 > 9$ va $M_{max} > 7,5$ (45%);
- Zona $1 > 8$ va $M_{max} > 6,5-7,0$ (49%);
- Zona $1 < 8$ va $M_{max} < 7$ (6%).

Jumladan: Qoraqalpogiston Respublikasi - 6 ballgacha; Xorazm va Samarqand viloyatlarida - 7 ballgacha; Toshkent, Qarshi, Buxoro, Termez, Namangan, Farg'ona shaharlarida - 8 ballgacha; Andijon viloyatida - 9 ballgacha yer silkinish ehtimoli mavjud.

ADABIYOTLAR

1. Karimov B., qizi Nishanova S. C. MEHNATNI MUHOFAZA QILISHNING MAQSAD VA VAZIFALARI //Educational Research in Universal Sciences. – 2023. – T. 2. – №. 16. – C. 482-486.
2. Khudaynazarovich J. B. RESEARCH OF OCCUPATIONAL SAFETY PROBLEMS OF WORKERS IN AGRICULTURAL INDUSTRIES RESEARCH OF PROBLEMS OF LABOR PROTECTION OF WORKERS IN AGRICULTURAL INDUSTRIES //Multidisciplinary and Multidimensional Journal. – 2023. – T. 2. – №. 5. – C. 60-71.
3. Khudaynazarovich J. B. RESEARCH OF OCCUPATIONAL SAFETY PROBLEMS OF WORKERS IN AGRICULTURAL INDUSTRIES RESEARCH OF PROBLEMS OF LABOR PROTECTION OF WORKERS IN AGRICULTURAL INDUSTRIES //Multidisciplinary and Multidimensional Journal. – 2023. – T. 2. – №. 5. – C. 60-71.

4. Muradov, S. (2023). ISHLAB CHIQARISHDAGI AVARIYALARNI O'RGANISH VA TAHLIL QILISH. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(16), 474–477. Retrieved from <http://erus.uz/index.php/er/article/view/5015>
5. Sirojiddin M., Umurzoq E. INNOVATIVE SOLUTIONS FOR IMPROVEMENT OF WORKING CONDITIONS AND ENVIRONMENT THROUGH THE KAIZEN METHOD //International journal of advanced research in education, technology and management. – 2023. – T. 2. – №. 12. – C. 42-47.
6. Muradov Sirojiddin Husan o‘g‘li, Xakimov Xurshid Hamidulla o‘g‘li, & Siddiqova Madinabonu Asatilla qizi. (2021). NEW INNOVATIVE ENGINEERING SOLUTIONS TO THE PROBLEMS OF SIGNALIZATION AND SECURITY SYSTEMS. *European Journal of Life Safety and Stability (2660-9630)*, 2, 28-30. Retrieved from <http://www.ejlss.indexedresearch.org/index.php/ejlss/article/view/13>
7. Muradov , S. H. o‘g‘li, & Zayniyev , U. U. o‘g‘li. (2023). PRINCIPLES OF PASSING AND DOCUMENTING INSTRUCTIONS ON SAFETY TECHNIQUES. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(14), 116–119. Retrieved from <http://erus.uz/index.php/er/article/view/4395>
8. Muradov Sirojiddin; Egamberdiyev Umurzoq. INNOVATIVE SOLUTIONS FOR IMPROVEMENT OF WORKING CONDITIONS AND ENVIRONMENT THROUGH THE KAIZEN METHOD//International journal of advanced research in education, technology and management. – 2023. – T. 2. – №. 12. – C. 42-47.
9. Husan o‘g‘li M. S., Hamidulla o‘g‘li X. X. Siddiqova Madinabonu Asatilla qizi. NEW INNOVATIVE ENGINEERING SOLUTIONS TO THE PROBLEMS OF SIGNALIZATION AND SECURITY SYSTEMS //European Journal of Life Safety and Stability (2660-9630). – 2021. – T. 2. – C. 28-30.
10. Muradov , S. H. o‘g‘li, & Egamov , D. S. o‘g‘li. (2023). INNOVATIVE SOLUTIONS TO PROTECT WORKERS FROM DANGEROUS GAS AND TOXIC SUBSTANCES IN HAZARDOUS INDUSTRY ENTERPRISES. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(14), 340–342. Retrieved from <http://erus.uz/index.php/er/article/view/4443>
11. MURADOV SIROJIDDIN HUSAN O‘G‘LI; ESHPO‘LATOV AZIZBEK ADHAM O‘G‘LI. PHYSIOLOGICAL AND HYGIENE BASIS OF HUMAN LABOR ACTIVITY// International journal of advanced research in education, technology and management.2023.266-273.
12. Rakhimov, O. D., and S. H. Muradov. "Digitalization of Instructions on Labor Protection and Safety Techniques." *European journal of life safety and stability (EJLSS)* 24 (2022): 80-86.
13. O.D. Rakhimov, Muradov S.H. Digitalization of Instructions on Labor Protection and Safety Techniques. // European journal of life safety and stability (EJLSS). 2022. №24. P.80-86.
14. MURADOV SIROJIDDIN HUSAN O‘G‘LI. ANALYSIS OF “MEASURES TO ENSURE OCCUPATIONAL SAFETY IN THE FIELD OF CARGO

TRANSPORTATION AND LOADING."// [INTERNATIONAL JOURNAL OF ADVANCED RESEARCH IN EDUCATION, TECHNOLOGY AND MANAGEMENT](#). Vol. 2 No. 9 (2023). 127-133

15. ЎГЛИ Р. Х. Ф., СИРОЖИДДИН М. ИЗУЧЕНИЯ УСЛОВИЯ ТРУДА В КОМПАНИИ ЕВРОПЫ. МУРАДОВ СИРОЖИДДИН //International journal of advanced research in education, technology and management. – 2023. – Т. 2. – №. 10.
16. ЎГЛИ, РАЖАБОВ ХУРШИД ФАХРИДДИН, and МУРАДОВ СИРОЖИДДИН. "ИЗУЧЕНИЯ УСЛОВИЯ ТРУДА В КОМПАНИИ ЕВРОПЫ. МУРАДОВ СИРОЖИДДИН." *International journal of advanced research in education, technology and management* 2.10 (2023).
17. ЎГЛИ, Р. Х. Ф., & СИРОЖИДДИН, М. (2023). ИЗУЧЕНИЯ УСЛОВИЯ ТРУДА В КОМПАНИИ ЕВРОПЫ. МУРАДОВ СИРОЖИДДИН. *International journal of advanced research in education, technology and management*, 2(10).
18. Rayimkulov A., Murodov S. Some Issues of Safety in the Use of Tower Cranes Used in Construction Projects //JournalNX. – С. 301-308.
19. Мурадов, Сирожиддин. "ПРОБЛЕМЫ ТУШЕНИЯ ПОЖАРОВ КЛАССА Е ЛИЧНЫМ СОСТАВОМ ПОЖАРНОЙ ОХРАНЫ В МИРЕ." *International journal of advanced research in education, technology and management* 2.5 (2023).
20. Мурадов С. ПРОБЛЕМЫ ТУШЕНИЯ ПОЖАРОВ КЛАССА Е ЛИЧНЫМ СОСТАВОМ ПОЖАРНОЙ ОХРАНЫ В МИРЕ //International journal of advanced research in education, technology and management. – 2023. – Т. 2. – №. 5.
21. Мурадов, С. (2023). ПРОБЛЕМЫ ТУШЕНИЯ ПОЖАРОВ КЛАССА Е ЛИЧНЫМ СОСТАВОМ ПОЖАРНОЙ ОХРАНЫ В МИРЕ. *International journal of advanced research in education, technology and management*, 2(5).
22. Rakhimov Oktyabr Dustkabilovich;Muradov Sirojiddin Husan o‘g‘li. Innovative Technologies in Teachingdirectors and Specialists of Industrial Enterprises on "Labor Protection"// *European Journal of Life Safety and Stability* (2660-9630), 2021/12/29. 80-85.
23. Sultonova , D. N., & Siddiqova , M. A. qizi. (2023). COLOR SCHEME IN THE FORMATION OF THE ARTISTIC ENVIRONMENT OF THE INTERIOR OF MODERN EDUCATIONAL CENTERS. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(14), 109–115. Retrieved from <https://erus.uz/index.php/er/article/view/4394>
24. Sultonova D. N., qizi Siddiqova M. A. COLOR SCHEME IN THE FORMATION OF THE ARTISTIC ENVIRONMENT OF THE INTERIOR OF MODERN EDUCATIONAL CENTERS //Educational Research in Universal Sciences. – 2023. – Т. 2. – №. 14. – С. 109-115.

INGLIZ LINVISTIKASIDA UCHRAYDIGAN KONSEPTUAL METAFORALARNING TAHLILI

Fayziyeva Aziza Anvarovna

Buxoro davlat universiteti

Raximova Sevara Izzatovna

Buxoro davlat universiteti

Tilshunoslikda metaforaning eng keng tarqalgan ta'rifi quyidagicha beriladi: "Metafora (metaforik model) - bir hodisani semantik jihatdan boshqasiga o'xshatishda yuzaga keladigan harakatlarni tavsiflovchi holatlar, xususiyatlar, harakatlarning yaqinligi, natijasidagi so'zlar (so'z birikmalari, gaplar) uchun yaratilgan. Voqelikning ayrim ob'ektlarini (vaziyatlarini) belgilash uchun ishlatiladi. Ramziy tenglikka asoslangan boshqa ob'ektlarning (vaziyatlarning) nomlanishida"(Glazunova,2002: 177-178).

Metaforani qo'llashda narsalarning ikkita tushunchasi, o'zaro bir so'z yoki ibora ma'nosiga ta'sir qiladi. Buni o'rganishda va shunga mos ravishda metafora tahlili uchun to'rtta komponent ishlatiladi:

- ob'ektlarning ikki toifasi;
- ikki toifaning xususiyatlari;

Metafora ob'ektlarning bir sinfining asosiy belgilarini tanlaydi va ularni boshqa sinf yoki shaxs bilan bog'laydi – muayan bir mavzu doirasida.

Shuningdek, metaforalarning duallik tushunchasi mavjud, qachon ikki xil sinf va ularning xususiyatlari bir-biri bilan o'zaro ta'sir qilsa. Tirik metafora o'zining paydo bo'lish va tushunilish paytida ikki belgini o'zaro ta'sirini anglatadi, qaysi obyekt bilan taqqoslanadigan va qaysi obyekt bilan solishtiriladigan, natijada ikkinchisining nomi birinchisining aylanib metaforik ma'noga ega bo'ladi.

Til rivojlanishining asosiy omili- Til metaforasi hisoblanadi. . Aynan u deyarli hamma holatlarda lingvistik jarayonlarda prototip bo'lib xizmat qiladi, masalan, sinonimning shakllanish vositalari, yangi ma'nolar va ularning nuanslarining paydo bo'lishi, polisemianing yaratilishi, hissiy ekspressiv lug'atni shakllantirish (Wheelwright, 1990: 106-108).

R.Xoffman shunday deb yozgan edi: "Metaforadan vosita sifatida har qanday sohada foydalanish mumkin, tavsif va tushuntirishlarda: aviakompaniya uchuvchilari o'rtasidagi psixoterapevtik suhbatlar va muhokamalar, marosim raqlarida va

dasturlash tilida, kvant mexanikasini san'at ta'limalda yoritishda. Metafora, biz uni qayerda uchratmasak ham, deyarli har doim insonning xulq-atvori, idroki va tili haqidagi tushunchani boyitadi" (Hoffman, 1987: 152).

Ingliz olimi E. Ortoniyning fikricha, hayotimizda metaforalardan foydalanishning uchta sababi bor:

Ular bizga qisqacha gapirishga yordam beradi.

Ular bizning nutqimizni yorqin qiladi.

Ular ifodalab bo'lmaydigan narsani ifodalashga imkon beradi (Ortony, 1990: 215).

Biz tez-tez metafora ishlathishimizning sababi shundaki ular bizga tez fikr bildirishga, nutqimizni ixcham, aniq va hamma uchun tushunarli bo'lishiga yordam beradi.

N.D. Arutyunovaning so'zlariga ko'ra, tildagi metaforalarni quyidagi turlarini ajratish mumkin:

1) *nominativ metafora* (ismni ko'chirish), bir obyektning ma'nonisini boshqa obyektga ko'chirganda;

2) *obrazli metafora* ma'noni predikatga aylantirib, tilning ko'chma ma'nolari va sinonimik vositalari sifatida xizmat qiladi;

3) *kognitiv metafora* muvofiqlikning o'zgarishi natijasida paydo bo'lib predikativ so'zlar va polisemiyani hosil qiladi;

4) *umumlashtiruvchi metafora*, bu yerda leksik ma'no va mantiqiy tartiblardagi chegaralardan xolis bo'lib va buning natijasida mantiqiy polisemija paydo bo'ladi. (Arutyunova, 1998: 366).

M.V. Nikitining metaforalar tipologiyasi monotoniyaga asoslanib ismni o'tkazish uchun sabab bo'lib xizmat qiladigan denotatsiyalardagi belgilar va to'g'ridan-to'g'ri ma'noning tegishli metaforik qayta tuzilishiga olib keladi. Agar o'xshashlik anologik holatda bo'lsa narsalarni solishtirganda, biz ontologik metaforaga duch kelamiz: to'g'ridan-to'g'ri va tizimli.

To'g'ridan-to'g'ri metafora bo'lsa, jismoniy belgilar o'xshash xususiyatga ega bo'lsa ("ayiq": 1. jonivorning turi – katta,bahaybad 2. semiz odam) strukturaviy holatda esa monotonlik tizimli xususiyatga ega, boshqa so'z bilan aytganda, belgilar ikkita denotatning tabiatida tarkibiy rol o'ynaydi (solishtirganda: ovqatlanish(ovqat qabul qilish), mehmonlarni qabul qilish, ma'lumot qabul qilish) (*Cp.: прием пищи, прием гостей, прием информации*). Ikkala versiyada ham o'xshash belgilar mavjud bo'lib, faqat solishtirishdan oldin topiladi va faqat unda namoyon bo'ladi. Qachon o'xshashlik belgilari taqqoslangan shaxslarda mavjud, lekin ontologik jihatdan ham jismoniy tabiatni, ham tarkibiy roli bilan farqlanadi va o'xshashlik momenti faqat idrok

paytida paydo bo‘ladi, biz gaplashamiz sinestetik va hissiy-baholovchi metaforalar. O‘xshashliklar bu yerda narsalarning ontologiyasi bilan emas, balki axborotni qayta ishslash mexanizmlari bilan hosil bo‘ladi.

Ontologik (to‘g‘ridan-to‘g‘ri va tizimli) metafora bilan o‘xshashligi sinestetik - har qanday holatda ham, har safar o‘ziga xos tarzda, ob’ektni qandaydir o‘xshashlik asosida belgilashga va tasvirlashga mo‘jalangan va berilgan ob’ektning xususiyatlariga asoslangan taqqoslashlardir. Ularga kognitiv tekislikdan o‘tishni taklif qiluvchi hissiy-baholovchi metafora qarshi turadi va ongni pragmatikaga aylantiradi (Nikitin, 2001: 37-38).

Shuni aytishimiz mumkinki, metafora barcha kontseptual tizimlarda mavjud bo‘lib, biror kishi uchun juda ko‘p turli xil tushunchalar anglatishi mumkin, tajribada mavhum yoki butunlay aniqlanmagan bo‘lsada (his-tuyg‘ular, g‘oyalar, vaqt va boshqalar). Ammo ularni tushunish uchun biz boshqa tushunchalardan foydalanishimiz kerak, aniqroq amalga oshiriladigan (fazoviy orientatsiya, ob’ektlar va boshqalar). Metaforalar yordamida biz kontseptual tizim tushunchasiga erishamiz.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Artyunova N.D. От образа к знаку. - В кн.: Мысление, когнитивные науки, искусственный интеллект. М., 1988. С. 147 – 162.
2. Artyunova N.D. Язык и мир человека. – М.: Языки русской культуры, 1998. – С. 366.
3. Bronte Ch. Villette London: Everyman Publishers plc, 2002. – 657 р.
4. Galsworthy J. The Forsyte Saga. Book III: To Let. – М.: Менеджер, 2004. – 384 с.

NISHATIY - AN ENLIGHTENED POET**Umida Zaripboeva**

Student of Namangan state university

E-mail: umidazaripboyeva629@gmail.com.

Annotation: This article provides detailed information about the life, work and analysis of Muhammadniyoz Nishoti, an enlightened Uzbek poet, one of the most prolific representatives of the literary life of Khorezm, lyric poet, epic writer, and author of parables.

Key words: Khanate of Khiva, Muhammad Rahim Khan II, Muhammadniyaz Nishoti, "Husn-u Dil" epic, "Birds' debate", "Book of fire-flashing lines", "Khoksar and Nishoti", "Mukhammadniyoz Nishoti", "Chosen works", "Shahbaz and Nightingale", "Gulistan".

NISHOTIY – MA'RIFATPARVAR SHOIR**Umida Zaripboyeva**

Namangan davlat universiteti talabasi

E-mail: umidazaripboyeva629@gmail.com.

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'zbek ma'rifatparvar shoiri, Xorazm adabiy hayotining sermahsul vakillaridan biri, lirik shoir ham dostonnavis, ham masal-munozara asarlari muallifi Muhammadniyoz Nishotiy hayoti, ijodi va asarlarining tahlili haqida bat afsil ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: Xiva xonligi, Muhammad Rahimxon II, Muhammadniyoz Nishotiy, "Husn-u Dil" dostoni, "Qushlar munozarasi", "O't chaqnagan satrlar kitobi", "Xoksor va Nishotiy", "Muhammadniyoz Nishotiy", "Tanlangan asarlar", "Shohboz va bulbul", "Guliston".

НИШАТИЙ – ПРОСВЕТЛЕННЫЙ ПОЭТ**Умида Зарибаева**

Студента Наманганского государственного университета

E-mail: umidazaripboyeva629@gmail.com.

Аннотация: В данной статье представлены подробные сведения о жизни, творчестве и анализе Мухаммаднийоза Нишоти – просвещенного узбекского поэта, одного из самых плодовитых представителей литературной жизни Хорезма, лирика, эпического писателя, автора притч.

Ключевые слова: Хивинское ханство, Мухаммад Рахим-хан II, Мухаммаднияз Нишоти, эпос "Хусн-у Дил", "Птицы дебаты", "Книга огненных строк", "Хоксар и Нишоти", "Мухаммаднийоз Нишоти", "Избранные произведения", "Шахбаз и Соловей", "Гулистан".

The Khorezm literary environment is an integral part of Uzbek literature. As the President of the Republic of Uzbekistan Sh. Mirziyoev noted, "Abu Raykhan Beruni, Muhammad Musa Khorazmi, Makhmud Zamakhshari, Najmuddin Kubro, Pakhlavon Makhmud, Nasiruddin Rabguzi, who drank water from the Amudarya and grew up in the holy and blessed Khorezm soil, left an indelible mark in the history of our nation". The names of Sulayman Bakirghani, Sakkoki, Munis, Feruz, Ogakhi, Bayani and many other scholars, poets and thinkers are rightfully written in golden letters in the history of world civilization.

Khorezm culture flourished in the period from the second half of the 18th century to the beginning of the 20th century. During this period, many scientists, poets, musicians and writers grew up in Khorezm. Through their work, Khiva khanate experienced a great rise. Especially during the period of Mukhammad Rakhimkhan II Feruz (1864 - 1910), the cultural development reached its peak. One of the talented poets who created during this period is Mukhammadniyaz Nishoti.

Mukhammadniyoz Nishotiy is one of the prominent and talented representatives of Uzbek literature of the 18th century. He is one of the active participants and prolific representatives of literary life in Khorezm. Little information has reached us about the life and work of Mukhammadniyaz Nishati, and we rely on the poet's poems and the epic "Husn-u Dil".

According to the preface of the epic "Husn-u Dil", Mukhammadniyaz Nishoti was born in Khorezm in 1701, after graduating from the madrasa, he worked as a judge and scholar for some years. With the advice and support of an official friend, he moved to Bukhara and created his epic here. Because Nishati did his work in Bukhara and not in Khorezm, many people think that he is from Bukhara, but in fact he is a writer from Khorezm. Ayyomi says in "O't chachnagan satlar ktobi" that Nishoti wrote his epic "Husn-u Dil" in 1778.

A number of lyrical poems of Nishoti, the work "Birds' debate" and the epic "Husn-u Dil", which occupy an important place in his work, have reached us.[2]

Nishoti's life and literary heritage were discovered in the 60s of the 20th century. Academician V. Abdullaev's service is great in this. He created a number of important studies - scientific articles, brochures - about this wonderful poet. For example, in the monograph "Khoksor va Nishotiy" (Samarkand, 1960), the poet's lyrics were separately studied. Also, the literary portrait "Mukhammadniyoz Nishotiy" (V. Abdullaev. Election. 1982. Pages 259-300), co-authored with fellow scientist B. Valikhojhaev, is considered one of the studies that deeply illuminates the life and literary legacy of Nishoti. In this research, special attention is paid to the analysis of the poet's epic "Husn-u Dil".

There is no lack of scientific research devoted to the comparative analysis of the epic of Nishoti and examples of this epic in the Tajik and Turkish languages created in the centuries before it. Literary critic M. Kasimova's doctoral dissertation defended in the late 60s of the 20th century and the treatise "Mukhammadniyoz Nishoti (life and work)" published in 1984 are among the works carried out in this direction.[3]

M. Abduvakhidova's discussion of "Shakhboz and Nightingale" by M. Abduvakhidova is one of the researches in this field ("Literary Heritage" magazine, 1976. No. 3). In the following years, Nishoti and his literary heritage were discussed in a number of scientific sources and textbooks. A number of achievements were also achieved in terms of publications of Nishoti's works. "Selected works" of the artist were published in Tashkent in 1960. Also, his lyric poems and the epic "Husn-u Dil" were published in 1967 by Khalid Rasulov, doctor of philology. The writer's "Birds Debate" was published in "Guliston" magazine.

The study of Nishoti's work has a deep philosophical criterion. Analyzing it perfectly, evaluating its ideological and artistic value is one of the urgent tasks facing our literary critics. Uzbek literary studies, which entered a new stage with the honor of independence, began to fully study Nishoti's literature.

We come across some short information about the life and creative activity of Mukhammadniyaz Nishoti in the works of artists such as Ogahi, Bayani, dedicated to the history of Khorezm. In this regard, the poet's own works - his poetry and the epic "Husn-u Dil" are also very important.[4]

As always, some officials in the palace are jealous of his growing influence. As mentioned above, the poet managed to save his life, which was in danger as a result of a serious conflict with courtiers, with the help and care of his friend. Thus, the poet was forced to move to Bukhara by fate. The poet, who could not find sympathy and like-minded people in his own life, began to have more difficult days in a foreign land, and moments when his soul was crushed.

Nishati wrote the epic "Husn-u Dil" during his stay in Bukhara. The plot of the epic is a creative plot that has long been spread and reworked in the literature of the Persian-Tajik and Turkic languages. For example, in the 15th century, the poet Fattahiy created an epic based on the plot of "Husn - u Dil". There are other versions of this epic in Persian-Tajik literature. The epic "Husn - u Dil" has a long history in Uzbek literature. Ohiy, a poet from the 16th century, wrote an epic on the plot of "Husn - u Dil".

One of the most popular versions of Husnu Dil is the epic of Nishoti. Nishoti's epic "Husn - u Dil" is completely different from other epics based on this plot. There

are many manuscript copies of this saga in Tashkent, Khiva, Bukhara, Samarkand and other places.[5]

Considering that the epic has 16,000 stanzas, it is understood that Nishoti worked very hard on the work, and his poetic memory was very strong. The main part begins with chapter 11 and the work ends with an epilogue. The main theme is love. It is reflected in the complex adventures of Husn and Dil. Certain characteristics of people are expressed in images such as intelligence, love, loyalty, kindness, honor, courage, patience, and competition. The saga ends with the wedding ceremony of Husn and Dil, that is, the victory of goodness over evil.

In the work, ideas such as love for the Motherland, patriotism, enlightenment and justice, courage, love and loyalty, and good manners are put forward. One feature that distinguishes “Husn-u Dil” epic from other epics is that the characters participating in it represent the inner and outer appearance of a person. [6] Many characters such as mind, Husn, heart, Faith, look, love, etc. participated in the saga. Manuscript copies of the saga are kept in the manuscript funds of the Institute of Oriental Studies of the Academy of Sciences of Uzbekistan.

Thus, Mukhammadniyaz Nishati appeared as one of the leading representatives of Uzbek literature in the 18th century. Although his lyrical works have not reached us in their entirety, the epic “Husn - u Dil” as a rare and unique example of Uzbek epic poetry shows that the poet’s name belongs to eternity.

REFERENCES

1. Mirziyoyev Sh. M. Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T. “O‘zbekiston”, 2017. – B. 241.
2. <http://genderi.org>
3. Orzibekov Rahmonqul. O‘zbek adabiyoti tarixi. – T.: O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi nashriyoti, 2006 – B. 106 – 107.
4. Jumaxo‘jayeva Nusratulla, Adizova Iqboloy. O‘zbek adabiyoti tarixi. – T.: “Innovatsiya – Ziyo”, 2020. – B. 396.
5. O‘zbek adabiyoti tarixi. – NUKUS, 2012. – B. 57.
6. Xolova Kamola. Muhammadniyoz Nishotiyning “Husn – u Dil” dostoni va uning badiiy ahamiyati.

HAYOT SUG'URTA KOMPANIYALARI FAOLIYATINI SAMARALI TASHKIL QILISH

Toshpo'latova Dilnoza Yusuf qizi

O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi magistranti

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada O'zbekistonda hayot sug'urtasini rivojlan-tirish, milliy sug'urta bozorini yanada isloq qilish va uning jadal rivojlanishini ta'minlash, hayot sug'urtasi xizmatlarining talab yuqori bo'lgan yangi turlarini joriy etish, iste'molchilarining sug'urta bozoriga bo'lgan ishonchini oshirish kunning eng dolzARB masalasi bo'lgan bir paytda hayot sug'urtasining rivojlanishiga bir qancha omillarning salbiy ta'siri mamlakatimizdagi real voqelikni va unga xos xususiyatlarni hamda ilg'or xorij tajribasini hisobga olgan holda hayotni sug'urtalash sohasida innavatsion mexanizmni ishlab chiqish va joriy etishga yo'naltirilgan tegishli ishlarni amalga oshirish yo'llari haqida so'z boradi. Shuningdek, ushbu soha bo'yicha mavjud muammo va kamchiliklar aniqlanib, ularni bartaraf etishda taklif va tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: sug'urta kompaniyalari, hayotni sug'urtalash dasturlari, aholini ijtimoiy himoya qilish, yalpi ichki mahsulot, hayot sug'urtasi, bonuslar, manfaatlarini sug'urta qilish.

ANNOTATION

Development of life insurance in Uzbekistan, further reform of the national insurance market and ensuring its rapid development, introduction of new types of life insurance services in high demand, consumer insurance. It allows you to determine the situation that is necessary to solve the problem, which is necessary to increase the level of reliability. The output aimed at development and implementation is about the ways of such implementation, the existing problems in this field are identified and proposals and recommendations are made to eliminate them.

